**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA FAKUL’TETI**

**GEOGRAFIYA VA EKALOGIYA ASOSLARI KAFEDRASI**

**“DAK ga tavsiya etaman”**
**Tabiiy fanlar va Geografiya fakulteti dekani**
**____________dots.A.Nazarov**
**“___”___________2014 yil**

# O’rta Osiyo muzliklari

**MAVZUIDAGI**

## BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi:«**Geografiya**» ta’lim yo’nalishi bitiruvchi 4-kurs talabasi **Ziyatova G.R**
_______________________

Rahbar: g.f.n.,dots K.Boymirzaev
_______________________

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o’tdi. Kafedraning__ sonli bayonnomasi. «____» ____________2014 yil.

1

Namangan – 2014

## MUNDAREJA

**Kirish……………………………………………………………………..……...3**

**1- BOB. O'RTA OSIYONI TABIIY GEOGRAFIK O'RGANILISHINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI VA TABIIY GEOGRAFIK HUSUSIYATLARI..........................................................................................8**

1.1. O'rta Osiyoning tabiiy geografik o'rganishning ilmiy-nazariy jihatlari.....................................................................................................8

1.2. O'rta Osiyo tabiatining tarixiy taraqqiyoti……………………………………..21

1.3. O'rta Osiyo iqlimining o'ziga hos hususiyatlari………………………….....27

1.4. O'rta Osiyo suvlari va gidrologik hususiyatlari…………………………..…32

**2- BOB. O'RTA OSIYO QADIMGI VA HOZIRGI DAVR MUZLIKLARINING ASOSIY HUSUSIYATLARI…………………………..…42**

2. 1. O'rta Osiyo tog'larida qadimgi muzliklarning paydo bo'lishi va muz hosil bo'lish davrlari………………………………………………………………….....42

2.2. O'rta Osiyo tog'larida qadimgi muzliklarning tarqalishi va ularning kattaligi.........................................................................................51

2.3. O'rta Osiyo tog'laridagi qadimgi muzliklarning turlari..................................60

2.4. O'rta Osiyo ularning hozirgi davr muzliklari va ularning o'ziga hos hususiyatlari......................................................................................................65

**Xulosa.........................................................................................................70**

**Foydalannilgan adabiyotlar ro'yxati..............................................................73**

# Kirish

**Mavzuning dolzarbligi –** Markaziy Osiyoda suv resurslari tanqisligi tufayli udan oqilona foydalanish masalalari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Bu borada Markaziy Osiyoda, jumladan O`zbekistonda ko`plab ishlar olib borilgan bo`lib, yer usti va yer osti suvlaridan oqilona foydalanishning davlat dasturi ham ishlab chiqilgan. Hozirda vaziyatning murakkabligi shundaki, hozirgi kunda mavjud suv resurslari deyarli to`liq o`zlashtirilgan. Sug'orma dehqonchilik, aholi sonining o`sishi, qishloq xo`jaligi va sanoatning rivojlanishi sharoitida suvga bo`lgan talab yanada ortdi.

Xususan, Prezidentimiz I.A.Karimov BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqida – « ... Orolbo`yi hududi ikkita asosiy manba – Amudaryo va Sirdaryo hisobidan suv bilan ta'minlanadi, ushbu daryolar oqimining kamayishi mazkur keng mintaqaning shundoq ham zaif ekologik muvozanatini butunlay o`zgartirib yuborishi mumkin »[1] – degan ogohlantiruvchini so`zlarni keng ommaga ta`kidlamagan.

Haqiqatdan ham mintaqamizda hozirgi kunda mavjud bo`lgan suv etishmasligi sharoitida suv resurslarining kelajakda, nisbatan juda oz miqdorda bo`lsa ham, lekin barqaror kamayib borishi yulkan muammoni keltirib chiqaradi. Bu hol O'rta Osiyoning katta suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish muammolarini oldingi qatorga qo`ymoqda va suv tanqisligi sezilmoqda.

I.A.Karimov «O`zbekiston XXI asr bo`sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida – «O`zbekistonning ekologik xavfsizligi nuqtai nazaridan qaraganda suv zahiralarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda. Respublikaning[3] daryolari, kanallari, suv omborlari va hatto yer osti suvlari ham har taraflama inson faoliyati

[1] O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi (22.09.2010 yil).

ta`siriga  uchramoqda. Sug'oriladigan hududlarda suv tabiatning bebaho in`omidir. Bugun hayot suv bilan bog'liq....»[2] - degan so`zlarni bejiz aytmagan.

Ma`lumki, keyingi yillarda iqlimning o`zgarishi, to`g'rirog'i havo haroratining ko`tarilayotganligi haqida juda ko'p marotaba takidlanmoqda. Bu jarayon o'z navbatida daryo suvlarining asosiy manbai hisoblangan muzliklar maydoni va miqdorining o'zgarishaga sabab bo'ladi. So'ngi tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha O'rta Osiyodagi daryolarning ba'zilarini  suvi global isish sharoitida kamayayotgan bo'lsa boshqalarniki ko'paymoqda. Asosan muzlik suvidan to'yinuvchi daryolar suvi ko'payib borayotgani muzlarni  juda katta tezlikda erib maydonini va xajmini qisqarib borayotganidan xabar beradi.  Iqlim isshining shu tarzda davom etishi yaqin kelajakda tog' muzliklarini kamayib yoki butunlay yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. SHu ma'noda O'rta Osiyodagi muzliklarni ilmiy va nazariy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi.  Bu  masalalar bitiruv malakaviy ishini dolzarb ahamiyatga ega ekanligini  belgilaydi.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi**. O'rta Osiyo muzliklarini hosil bo'lishi va ularning hususiyatlari to'g'risida juda ko'p olimlar o'z fikr mulohazalarini bildirib o'tgan.   V.V.Reznitsenko, A. Ya.Petrosyants, S.V.Kalesniklar O'rta Osiyoda qadimgi muzliklarning hosil bo'lishi tadqiq etishgan.  Akademik I. P. Gerasimov va professor K.K.Markovlar tog'larning qadimgi muzliklar bo'yicha juda ko'p materiallarni analiz qiliganlar. L. S. Berg muzliklarning hosil bo'lishi to'g'risida o'ziga hos fikrini bayon etgan. O'rta Osiyo muzliklari paydo bo'lish hususiyatlariga O.K.CHediya ham o'ziga hos yo'nalishda yondashadi.

Olimlardan S. V. Kalesnik, R. D. Zabirov, A. A[4] Kreyterlar Pomir, Oloy va Markaziy Tyan'shan' tog'larining qadimgi muzliklarining qoldik;larini tekshirib, bu rayonlarda faqat bir muzlik davri bo'lgan degan xulosaga kelishsa, D. V. Nalivkin, D. I. Mushketov, O. K-

---

[2] I.A.Karimov «O`zbekiston XXI asr bo`sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» - Toshkent: "O`zbekiston", 1997– 267 b.

CHediya, N. A. Gvozdetskiy. Yu. A. Skvortsov, V. O. Epshteyn, V. V. Reznichenko, G. Mertsbaxer, G. Prints, S. Ye. Dmitriev, Yu. Ya. Kuznetsov, N. M. Sinitsыn, K. Trofimov, K. M. Mirzaev, K. K. Markov, F. Sidorov, A. L. Reyngard va boshqalar Pomir, Markaziy va G’arbiy Tyan’shan’, Oloy, Hisor, Orqa Oloy, Farg’ona va boshqa tog’li rayonlarning qadimgi muzlik qoldiqlarini tekshirib u tog’larda to’rtlamchi davr mobaynida ikkita muzlik davrlari bo’lgan deyishadi.

Yana boshqa bir guruh olimlar N. P. Kostenko, V. V. SHumov, V. A. Vasil’ev, N. N. Palgov, V. I. Ognev, V. Popov va boshqalar O’rta Osiyo tog’larining turli rayonlarida uchta qadimgi muzlik davri bo’lgan desa, M. I. Lomonovich, V. I. Popov, Ya. A. Leven, L. I. Tur-bin, M. M . Mamatkulov va boshqalar to’rtta qadimgi muzlik davri borligini aytishgan. Bulardan tashqari P.P.Semyonov-Tyanshanskiy, A.P.Fedchenko, N.A.Severtsev, I.V.Mushketovlarning ham bu borada olib borgan tadqiqotlarini alohida takidlab o’tish mumkin. Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turibdiki O’rta Osiyoni qadimga va hozirgi davr muzliklari to’g’risidagi fikr va mulohazalarni juda ko’plam olimlarni ishlarida uchratish mumkin hamda shu bilan birga iqlim isishi sharoitida bu muzliklar holatini tadqiq etish muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

**Mazkur bituruv malakaviy ishining ob’ekti va predmeti**. Bitiruv malakaviy ishining obekti sifatida O’rta Osiyo xududida tarqalgan muzliklar tanlangan bo’lsa, predmeti esa O’rta Osiyo muzliklarning hususiyatlari va tarqalish qonuniyatlar tadqiq etishga qaratilgan.

**Ishning maqsad va vazifalari** O’rat Osiyo xududida[5] qadimda bir necha bor muz hosil bo’lish bosqichlari bo’lgani va o’sha davrlarda muzliklar maydoni anchagina katta bo’lganidan tog’lardagi muz qoldirgan izlar dalolat beradi. O’rat Osiyo muzliklarining maydoni va xajmi yildan – yilga o’zgarib bormoqda. Ayniqsa global isish sharoiti bunga katta ta’sir ko’rsatmoqda. Bu

masalalarni tadqiq qilish BMIning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar kelib chiqdi:

- O'rta Osiyo tabiatining tarixiy taraqqiyotini taxalil qilish
- O'rta Osiyo iqlimining o'ziga hos hususiyatlarini o'rganish
- O'rta Osiyo suvlari va gadrologik hususiyatlari baholash
- **O'**rta Osiyo tog'larida qadimgi muzliklarning paydo bo'lishi va muz hosil bo'lish davrlarini tadqiq qilish
- O'rta Osiyo tog'larida qadimgi muzliklarning tarqalishi va ularning kattaligini taxlil qilish
- O'rta Osiyo ularning hozirgi davr muzliklari va ularning o'ziga hos hususiyatlari va jihatdan o`rganish.

**Ishning nazariy va metodologik asoslari**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tabiat boyliklariga nisbatan tejamkorlik, mas'uliyatlilik va ulardan oqilona foydalanish haqidagi me'yoriy hujjatlari, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi, inson va tabiat birligi, insonning tabiatga ta'siri va undan foydalanish, biosfera va noosfera haqidagi ta'limotlar, glyatsologiyaga oid samarali izlanishlar olib borgan yetakchi olimlarning fundamental manbalari tashkil qiladi.

Tadqiqot jarayonida retrospektiv, tizimli va statistik tahlil, matematik bashoratlash, monografik, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanildi.

6

**Ilmiy yangiligi.** BMIning ilmiy yangiligi safatida O'rta Osiyo hududida qadimgi mizliklarning paydo bo'lishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatganini va O'lkadagi qadimgi muzliklarning paydo bo'lishiga tog' hosil bo'lish jarayoni ham, iqlim o'zgarishi ham, yerning quyoshga nisbatan xarakatining o'zgarishi ham, yer atmosferasi haporatining pasayishi ham katta ta'sir ko'rsatgan aytish mumkin. Bu

o’z navbatida ma’lum davrda qaysidir omilning yetakchi o’ringa ko’tarilishi bilan bog’liq bo’lganini alohida takidlash lozim. O’rta Osiyo hududida qadimda xozirgiga nisbatan bir necha barobar katta maydonda muzliklar shakillangan bo’lib ularning maydoni hozirgi kunda keskin qisqarib ketgan va bu jarayon xozir ham davom etmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi**. BMIning 1- bobi O’rta Osiyoni tabiiy geografik o’rganilishining ilmiy nazariy asoslari va tabiiy geografik hususiyatlari deb nomlangan bo’lib unda asosan O’rta Osiyoning tabiiy geografik o’rganishning ilmiy-nazariy jihatlari, O’rta Osiyo tabiatining tarixiy taraqqiyoti, O’rta Osiyo iqlimining o’ziga hos hususiyatlari, O’rta Osiyo suvlari va gadrologik hususiyatlariga to’xtalib o’tilgan. BMIning 1- bobi O’rta Osiyo qadimgi va hozirgi davr muzliklarining asosiy hususiyatlari deb nomlangan. Ushbu bobda O’rta Osiyo tog’larida qadimgi muzliklarning paydo bo’lishi va muz hosil bo’lish davrlari, O’rta Osiyo tog’larida qadimgi muzliklarning tarqalishi va ularning kattaligi, O’rta Osiyo tog’laridagi qadimgi muzliklarning turlari, O’rta Osiyo ularning hozirgi davr muzliklari va ularning o’ziga hos hususiyatlariga etibor qaratilgan. SHular bilan birga hulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati keltirilgan.

# I- BOB. O'RTA OSIYONI TABIIY GEOGRAFIK O'RGANILISHINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI VA TABIIY GEOGRAFIK HUSUSIYATLARI

## 1.1. O'rta Osiyoning tabiiy geografik o'rganishning ilmiy-nazariy jihatlari

O'rat Osiyoni tabiiy geografik o'rganilishi tarixini bilmay turib, respublika geografiyasining asosiy mazmunini, konstruktiv amaliy geografiyaning O'zbekistonga oid muhim regional muammolarini va kelgusida hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalarni tushunib olish qiyin.

O'zbekiston mustaqil rivojlanish yo'liga o'tib olganligi mustabid sho'rolar davrida respublikamizda geografiyaning taraqqiyoti tarixini o'rganishda an'anaviy tus olgan, biroq endilikda davr taqazosi bilan eskirib qolgan ko'plab ilmiy tasavvur, g'oya, nazariya va yondashuvlarni jadallik bilan qayta ko'rib chiqishni taqazo etadi. Eng muhimi shuki, geografiya fani tarixini yoritishdagi sobiq «Evrotsentrik» yondashuvga barham berib, turli davlatlarda ijod etgan O'zbekistonlik va umuman SHarq sayyoh olimlarining geografik merosini atroflicha hamda chuqur o'rganish, ularni ob'ektiv baholash lozim. O'rta Osiyo hududining tabiiy - geografik o'rganilishini quyidagi bosqichlarga bo'linadi..

1. Qadimgi dunyo geografiyasida O'rat Osiyo hududining o'rganilganligi holati.
2. O'rta Osiyo hududi tabiati haqidagi geografik tasavvurlarning o'rta asrlarda rivojlanishi.
3. O'rta Osiyo hududi tabiati haqidagi geografik tasavvurlarning XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida rivojlanishi.
4. Geografik tasavvurlarning O'rta Osiyo hududida[8] mustamlaka davrida rivojlanishi.
5. O'rta Osiyo geografik tasavvurlarning sho'rolar davrida rivojlanishi.
6. Mustaqillik yillarida O'rta Osiyoda geografiyaning taraqqiyoti.

**Qadimgi dunyo geografiyasida O'rta Osiyo hududining o'rganilganligi holati.** O'rta Osiyo hududi tabiiy sharoitining qulayligi juda qadimdan kishilar e'tiborini o'ziga jalb etgan. Qulay tabiiy sharoit bu yerda bir necha yuz ming yil

avval odamlar yashay boshlashiga imkon bergan. O’rta Osiyoda oxirgi topilgan ilk tosh asriga oid makonlarning ochilishi haqli ravishda bu hududni odamzodning ilk ajdodlari paydo bo’lgan mintaqaga kiritish imkonini berdi.

Ibtidoiy jamiyat davrida Xorazm, Qashqadaryo, Zarafshon, Surxandaryo vohalarida yashagan odamlar bu yerlar tabiati haqida muayyan tasavvurga ega bo’lganlar. Ilk geografik tasavvurlar tabiatning yangi boyliklarni izlab topish va o’zlashtirish, tabiiy sharoiti qulay yerlarga joylashish, sug’orma dehqonchilik, ov kasbkorligi va chorvachilik vositasida tabiatning ko’zga yaqqol tashlanib turgan oddiy xususiyatlarini bilishga intilishlari munosabati bilan takomillasha borgan. Dastlabki geografik tasavvurlarning rivojlanishida sug’orma dehqonchilak va chorvachilikning vujudga kelishi, qadimgi shahar madaniyati hamda sug’orma dehqonchilik vohalarining shakillanishi muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Afsuski, tarixiy sabablarga ko’ra ilk mahalliy qo’lyozmalar deyarli saqlanib qolmagan. Bu esa o’lkamiz xalqlarining qadimiy geografik tasavvurini mukammal aniqlash va uni ilmiy taxlil qilishga imkon bermaydi. Ular yunon va arab istilolari davrida yo’q qilib yuborilgan. O’rta Osiyo tabiati, xo’jaligi va xalqlari haqidagi ayrim ma’lumotlar saqlanib qolgan ilk yozma manbalardan biri muqaddas kitob «Avesta»dir. U eramizdan oldingi VII – VI asrlarda paydo bo’lgan. Unda o’lkamizdagi qadimgi davlatlar- Xorazm, Sug’diyona, Baqtriya va boshqalar eng boy, tabiati xilma-xil va ko’rkam mamlakatlar sifatida tilga olinadi. Unda o’lkamizning qadimiy vohalari, vodiylari va tog’lari ta’svirlanadi.

Antik davrda O’rta Osiyo hududi haqidagi geografik tasavvurlar ancha kengaygan va chuqurlashgan. O’lkamiz haqidagi geografik ma’lumotlar birmuncha to’liq aks ettirilgan. Bizgacha yetib kelgan asosiy manbalar-qadimgi grek (yunon) va qisman xitoy yozma manbalaridir. [9]

Gerodotning qadimgi fors manbalari asosida to’plagan geografik ma’lumotlari, Ptolemeyning O’rta Osiyo tekislik qismi tabiati va aholisi, asosiy karvon yo’llari va yirik shaharlari haqida yozganlari, uning 27 ta xaritadan iborat «Dunyo atlasi», xitoy sayyohi CHjan-TSyanning xilma-xil tarixiy va geografik ma’lumotlari shular jumlasidandir. CHjan-TSyan 13 yil davomida (miloddan

avvalgi 138-126 yillar) Issiqko’l atrofi, Farg’ona va Xorazm tabiatini, aholisi va xo’jaligini o’rgangan. Antik davr geografik ma’lumotlari asosan O’rta Osiyoning tekislik qismi haqida bo’lib, mukammal emas edi.

O’rta Osiyo hududi haqidagi eng qadimgi va antik davr geografik tasavvurlari ancha cheklangan bo’lishiga qaramay, ular O’zbekiston hududi haqidagi dastlabki geografik ma’lumotlarni beradi.

**O’rta Osiyo hududi tabiati haqidagi geografik tasavvurlarning o’rta asrlarda rivojlanishi**. O’rta asrlarda O’rta Osiyoda yetuk olimu-fozillar yetishib chiqdi. Bu o’lkaning farzandlari Muhammad Al Xorazmiy, Ahmad Farg’oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn-Sinolar yaratgan asarlar jahon madaniyati hazinasining durdonalari edi. Bizning zaminimiz bu davrda jahonning katta qismini titratgan mo’g’il istilochilari vayron qilgan o’lkaga jon bag’ishlagan Amir Temurni yetishtirib chiqardi.

Muhammad al-Xorazmiy va Ahmad Farg’oniy (IX asr), Abu Zaid Balhiy, Jayhoni, Abu Abdulla Xorazmiy (X asr), Abu Rayhon Beruniy, Ibn-Sino, Mahmud Qoshg’ariy (XI asr), Xofizi Abro’, Abdurazzoq Samarqandiy, Ulug’bek (XV asr), Zahiriddin Bobur, Haydar Mirza, Xofiz Buxori, Sulton Balhiy (XVI asr) boshqa fanlar qatori geografiya fani rivojiga katta hissa qo’shdilar.

Ilk o’rta asrda o’lka tabiatiga qiziqish, uni kuzatish, tabiatdan xo’jalik maqsadlarida foydalanish jarayoni davom etgan. O’lka tabiati Xitoy, arab va yerli olimlar tomonidan o’rganildi. Mahmud Qoshg’ariyning XI asr oxirlarida yozilgan «Devonu lug’atit-turk» asarida R.Rahimbekovning yozishicha ilk o’rta asrdagi ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, tabiat va uning manzaralari, qabilalar hamda ular o’rtasidagi janglar ta’svirlangan.

Xitoy sayyohi Syuan’ TSzan 629 yilda O’rta [10]Osiyoning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda bo’lib, ularning geografik tasvirini bergan. Bunda u asosiy e’tiborni tabiatga emas, balki o’lka xalqlarininng ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga qaratgan.

VII asrning ikkinchi yarimida O’rta Osiyoga kirib kelgan arablar o’lkaning iqtisodiy va madaniy hayotiga juda katta zarar yetkazdi, natijada boshqa fanlar qatori tabiiy fanlar ham chuqur inqirozga uchradi.

Ma’lumki, IX-XII asrlar O’zbekiston hududi geografiyasi tarixida o’ziga xos yorqin davrdir. Bu davr geografik tasavvurlarning ikki muhim manbai bor. Bular O’rta Osiyolik olimlarning ilmiy asarlari, chet el geograflari va sayyohlarining ma’lumotlaridir.

O’rta Osiyo geografiyasiga asos solgan, IX asrda yashab ijod etgan shu yerlik olimlardan biri Muhammad ibn Muso Xorazmiydir. U 780 yilda Xivada tug’ilib, 850 yilda Bog’dodda vafot etgan. Uning geografik merosi geodeziya, xaritashunoslik va mamlakatshunoslikka oid asarlardan iborat. Xorazmiyning eng yirik geografik asari bu «Surat-al-arz» (Erning tasviri) bo’lib, unda shaharlar, mamlakatlar, tog’lar, okeanlar, dengizlar, daryolar, ko’llar haqida ma’lumotlar keltirilgan, ularning koordinatalari ko’rsatilgan, xaritalar ham berilgan. Asar 1878 yilda Qohirada topilgan va shu yiliyoq rus tiliga tarjima qilingan.

O’rta Osiyo hududi tabiati, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, xo’jaligi, tarixi haqida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy) juda qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan. 150 dan ortiq ilmiy asar yozgan, shundan 20 tasi asosan matematik geografiya va tabiiy geografiyaga oiddir. Bular ichida bizgacha «Xarita», «Minerologiya», «Hindiston», «Geodeziya», «Osori boqiya», «At-Tafhim», «Qonuni Mas’udiy», «Saydana» kabi asarlari yetib kelgan. Beruniy o’z asarlarida Yerning shakli va o’lchamlari, Yerning quyosh atrofida aylanishi, joyning geografik koordinatalarini aniqlash usullari, o’lkamiz paleografiyasi haqida ma’lumotlar beradi. Prof. H.H.Hasanov Beruniy asarlarining o’rta asr geografik tasavvurlarining rivojlanishidagi benihoya katta[11] ahamiyatini hisobga olib, O’rta Osiyodagi XI-XII asrlar geografiyasini Beruniy davri geografiyasi deb atash mumkin deb yozgan edi.

O’rta Osiyo hududida X-XI asrlarda geografiyaning rivojlanishida o’rta asr tibbiyotinig ulkan vakili, tabiatshunos Abu Ali ibn Sinoning (980-1037 yy) xizmatlari katta. U 280dan ortiq asar yozgan bo’lib, shundan 30 ga yaqini tabiiy

fanlarga bag'ishlangan. «Kitobi ash-SHifo» asarining «Tabiat» deb atalgan bobida minerallarning, tog'larning, vodiy va tekisliklarning paydo bo'lishi to'g'risida aniq fikr va xulosalar bergan.

O'rta Osiyo hududidi geografiyasiga oid o'rta asr manbalari muallifi Mahmud Qoshg'ariydir. U «Devonu lug'atit turk» asarida dunyoning yangi xaritasini, joy nomlarining izohini bergan, O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda yashovchi xalqlar geografiyasini aks ettirgan, astronomiyaga oid ma'lumotlar bergan. Uning dunyo xaritasida, R.U.Rahimbekovning takidlashicha, O'rta Osiyoning Yevrosiyoda tutgan o'rni va yirik geografik ob'ektlari, tog' tizmalari, vodiylari ancha to'g'ri ko'rsatilgan.

O'rta Osiyo hududi tabiati haqidagi geografik tasavvurlarning rivojlanishida o'rta asrda yashagan eron va arab olimlari va sayyohlari Ibn Xurdodbeh, Ibn Rusta, Al Ma'sudiy, Ibn Fazlon va boshqalarning xizmatlari ham diqqatga sazovordir.

O'rta asrda O'rta Osiyoda mo'g'illar hukumdorlik qilgan sal kam 150 yil davomida (1220-1360 yy) fan, shu jumladan geografiya og'ir ahvolda qoldi. SHunga qaramay O'rta Osiyolik olim va sayyohlar Muhammad Avfiy va Fahriddin Binokantiy, arab sayyohi Ibn Batuta, yevropalik sayyohlar Plano Karpini, Vil'gelm Rubruks, Marko Pololar o'lka geografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Umuman olganda, bu davrdan saqlanib qolgan manbalar o'lkamiz tabiati to'g'risida bir butun va mukammal tasavvur hosil qilmaydi.

O'rta Osiyoda temuriylar hokimiyati davrida (XIV asr oxiri va XV asr) markazlashgan davlatning vujudga kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-madaniy hayotning rivojlanishi natijasida boshqa fanlardagi kabi geografik bilimlar ham ancha kengaydi va chuqurlashdi. Bunda uyg'onish davrining ikkinchi bosqichida SHarqda madaniy rivojlanishga katta hissa qo'shgan buyuk bobokalonimiz Amir Temurning xizmatlari katta bo'lgan. «Qizil imperiya» davrida Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoqlar bilan o'chirilgan, unutilishga mahkum etilgan bo'lishiga qaramasdan Amir Temurga bag'ishlab jahon sharqshunosligida ko'plab asarlar yozildi va uning jahon fani rivojiga qo'shgan hissasi yuqori

baholandi. Masalan, frantsuz temurshunoslik maktabining ko’zga ko’ringan vakillaridan biri Parij universiteti doktori, professor Lyus’en Koren shunday deb yozadi: «Temur-beqiyos, uning qiyosi yo’q. U buyuk sarkarda va tashkilotchi, shu bilan birga sa’natkor va olimlar rahnamosi, moziy yo’rig’ini o’zgartira olgan shaxslarga yo’ldosh, sehrga ega bo’lgan kishidir» (L.Koren, A.Saidov «Amir Temur va Frantsiya». Toshkent, «Adolat»: 1996, 43 -bet).

Temur davrida o’lka geografiyasi rivojlanishiga bevosita katta hissa qo’shgan olim Xofizi Abrudir. Uning bizgacha yetib kelgan yagona qo’l yozma asari geografik, tarixiy mazmunga ega bo’lib, unda dunyoning tasviri, Movarounnahrning tabiati, xo’jaligi va shaharlari haqida ancha keng geografik ma’lumotlar bor. Ular sof geografikligi, aniqligi, o’lkamiz geografik o’rni esa o’ziga hos xaritagrafik to’r asosida berilganligi bilan ajralib turadi. Xofizi Abruning ma’lumotlari umumiy geografik va o’lkashunoslik xarakteriga ega bo’lib, o’z davrining ilmiy durdonasi hisoblanadi.

Temuriylar davrida O’rta Osiyoda Xofizi Abrudan tashqari jahon geografiyasi uchun boy ilmiy meros qoldirgan Abdurazzoq Samarqandiy, Mirzo Ulug’bek, Ali Qushchi, Zahiriddin Muhammad Bobir, Haydar Mirza kabi sayyoh, tarixchi va geograf olimlar yashagan va ijod qilgan. Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1482 yy) Hindistonga dengiz orqali sayyohat qilgan. Qizilqum, Zarafshon vodiysi tabiati haqida ma’lumotlar qoldirgan.

XV asrda O’rta Osiyo hududida geografiyaning rivojiga munosib hissa qo’shgan shaxs bu buyuk astranom, ma’rifatparvar shoh Mirzo Ulug’bekdir. U Samarqandda o’ziga xos fanlar akademiyasi tashkil etib, uni sharqning eng mashhur ilmiy markaziga aylantirdi. Markazga o’z davrining yetuk olimlaridan Qozizoda Rumiyni, G’iyosiddin Jamshidni, Koshiyni, Ali[13] Qushchi kabi tabiyot bilimdonlarini jalb qildi. Bizgacha Ulug’bekning ikki yirik asari «Tarixi arba’ ulus» va «Ziji Ko’rag’oniy» yetib kelgan. «Tarixi arba’ ulus» asarida CHingizxon zabt etgan mamlakatlarning siyosiy hayoti tarixi geografik ma’lumotlar bilan birgalikda berilgan bo’lsa, Ziji Ko’raganiy asarida astronomiya nazariyasi hamda Ulug’bek shogirdlari bilan olib borgan astronomik kuzatuv va matematik hisoblari

natijalari bayon qilgan. Bu asarida Ulug'bek tahminan 570 ta shaharning koordinatalarini bergan, rasadhonasidagi globusda iqlimlarning chegaralari, tog'lar, cho'llar, dengizlar va daryolarni aks ettirgan.

Ulug'bekning astronomiya va geografiyaga oid izlanishlari nazariy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki unda olim o'z shogirdlari bilan birga koinot va Yer yuzi tabiatini bevosita kuzatib o'rganish, asboblar bilan o'lchash va matematik hisoblash usullarini qo'llagan. Uning astronomiya maktabi tabiiy geografiyaning rivojiga katta hissa qo'shdi. Ulug'bekning shogirdi, istidodli olim Ali Qushchi uning fojiali o'limidan so'ng ustozining ishini davom ettirib o'lkamizda astronomiya, geografiya va matematikaning rivojlanishiga barakali hissa qo'shdi. Ali Qushchi Yer $1^0$ yoyining uzunligini va shu orqali ekvator uzunligini aniqlagan, Yer shari g'arbdan sharqqa tomon aylanishini isbotlagan, Oy va Quyosh tutilishi hodisasini ilmiy jihatdan to'g'ri tushuntira bilgan.

O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda XVI asrda geografiyaning rivojiga barakali hissa qo'shgan shaxs bu entsiklopedist olim, adolatli shoh Zahriddin Muxammad Bobirdir (1488-1530yy). Uni dunyoga olim sifatida tanitgan asari «Bobirnoma» asaridir. Unda Farg'ona vodiysidan tortib to Janubiy Hindistongacha bo'lgan hududlarning tabiati, shaharlari, boyliklari, aholisi, urf-odatlari, xo'jaligi juda keng va chuqur ta'svirlangan. Bobirnomada ayniqsa Farg'ona va Movarounahr viloyatlari, Samarqand shahri geografik tasviri kampleks o'lkashunoslik va mamlakatshunoslik ruhida bayon etilgan. Asarda Afg'oniston va Hindistonga ham batafsil geografik tavsif berilgan, O'rta Osiyo yerlari bilan bu o'lkalarning qiyosiy geografik tavsifi mohirona bayon qilingan. Bobirnomada tabiat komponentlari va ularning o'zaro aloqadorligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar, tabiatga sifat jihatidan baho berish elementlari ham uchraydi[14]. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Zahriddin Muxammad Bobirning ilmiy merosi O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston hududi haqidagi geografik tasavvurlarning kengayishida alohida o'rin tutadi, «Bobirnoma» esa o'z davrining eng yuksak asaridir.

XVII asrda O’rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning noqulay bo’lishi o’lkada geografiyaning rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatdi. Bu asr geografik manbalari tarixiy-geografik o’lkashunoslik yo’nalishida bo’lgan.

Yuqorida keltirilgan tahlildan ko’rinib turibdiki, O’rta Osiyoda o’rta asrlarda geografiya rivoji bir tekis bo’lmagan.

**O’rta Osiyo hududi tabiati haqidagi geografik tasavvurlarning XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida rivojlanishi.** Bu davrda o’lkadagi bir necha xonliklar o’rtasidagi ziddiyatlar hatto urushlar, din ahillarining ilmiy-madaniy hayotga salbiy ta’siri, qadimgi karvon yo’llari mavqeining ancha pasayib ketishi natijasida umumiy iqtisodiy, ijtimoiy tanglikning yuzaga kelishi O’zbekiston hududida boshqa fanlar qatori geografiyaning ham inqirozga yuz tutishiga sabab bo’ldi. Feodalizm ta’qibi ostida ko’plab fan, madaniyat ahillari o’z vatanlarini tashlab ketishga yoki og’ir sharoitda yashab, ijod etishga majbur bo’ldilar. Bu davrda mahalliy olimlar tomonidan maxsus geografik asarlar deyarli yaratilmadi.

XVIII asarda ruslarning geografik tadqiqotlari ko’lami tobora kengaya borib, O’rta Osiyo hududini ham qamrab olaboshladi. Rossiya o’lkamizda o’z iqtisodiy mavqeini oshirishga intildi, xonliklar bilan savdo-sotiq va diplomatiya aloqalarini olib bordi, o’lkamiz orqali Xitoy va Hindistonga o’tadigan qadimgi savdo yo’lini tiklashga urindi. Natijada O’rta Osiyo hududiga ekspeditsiyalar uyushtirildi, geografik tadqiqotlar olib borildi. O’zboy, Ustyurt, Quyi Amudaryo tabiati haqida, Xiva va Buxoro xonliklari geografiyasi, tarixi va etnografiyasiga oid ma’lumotlar to’plandi. Ekspeditsiyalarning asosan diplomatiya, harbiy va savdo maqsadlarida o’tkazilganligi va ular tarkibida tabiatshunoslarning ham ishtirok etganligi uchun o’lka tabiati haqidagi ilmiy geografik ma’lumotlar kam to’plangan.

XIX asr boshlaridan O’rta Osiyo hududiga ko’plab ekspeditsiyalar uyushtirildi. Ularda tadqiqotlar mutaxassislar tamonidan ancha mukammal va chuqur olib borildi. Ekspeditsiya materiallari asosida I.V.Xannikovichning «Opisanie Buxarskogo xanstva» (1843) G.I. Danilevskiyning «Opisanie Xivinskogo xanstva» (1851)asarlari, A.I. Butakovning Orol dengizi xaritasi yuzaga

keldi.Bu asarlarda xonliklar hududining iqlimi, rel'efi, gidrografiyasi, aholisi, xo'jaligi ancha batafsil bayon etilgan.

XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Xiva va Buxoro xonliklari bilan diplomatik hamda savdo aloqalarini yo'lga qo'yish, so'ngra uni Rossiya imperiyasi ta'siriga tortish maqsadida o'nlab ekspeditsiya va elchilar safari uyushtirildi.

XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo hududi Angliyaning ham diqqat markazida bo'lgan. U Rossiya bilan raqobatda bo'lib, O'rta Osiyoga tezroq kirib kelish va uni asta-sekin egallash payiga tushib, o'lkamizga o'z josuslarini, sayyohlarini yuborgan. Ular Buxoroda, Xivada bo'lishgan; Amudaryo havzasini o'rganganlar, o'zlari bo'lgan yerlarning topografiyasi, aholisi, xo'jaligi bilan qiziqqanlar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tanglikka qaramasdan o'lka tabiati, aholisi xo'jaligi haqida geografik va xaritagrafik ma'lumot to'plandi. Bu davrni mustamlakachilik maqsadida geografik ma'lumotlarni to'plash, tabiatni tasvirlash bosqichidan iborat bo'lgan deb baholash mumkin.

**Geografik tasavvurlarning O'rta Osiyo hududida mustamlaka davrida rivojlanishi. (1850-1917 yy).** XIX asrning o'rtalarida O'rta Osiyo hududini geografik jihatdan jadal o'rganish boshlandi. CHunki CHor Rossiya o'lkamiz hududini bosib olish maqsadini ko'zlab, bu yerga uyushtirilgan ekspeditsiyalarni rag'batlantirib turdi. O'lkani har tomonlama geografik tadqiq qilish CHor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga bo'ysindirilgan edi.

1860-1870yillarda Qo'qon, Buxoro va nihoyat 1873 yilda Xiva xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishi o'lka tabiatini[16] va resurslarini keng qo'llamda o'rganishga sharoit yaratdi. O'zbeksiton hududiga ko'plab kompleks ekspeditsiyalar uyushtirildi. Toshkentda «Harbiy topografik otryad» (1870y)Toshkent observatoriyasi, Ipakchilik maktabi, gimnaziyalar, Rossiya geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi (1897) kabi tashkilotlar paydo bo'la boshladi. Bu davrda o'lka geografiyasining eng muhim qonuniyatlari aniqlandi,

tabiiy sharoitiga baho berish, uning tabiiy boyliklarini izlab topish, ancha mukammal geografik, geologik, geobotanik xaritalar tuzish, tabiiy fanlarning turli sohalariga oid aniq ma'lumotlar to'plash, topografik plan olish yuzasidan katta ishlar qilindi. Bunda P.P.Semyonov-Tyanshanskiy, A.P.Fedchenko, N.A.Severtsev, I.V.Mushketov, V.A. Obruchev, N.I. Andrusov, N.A. Zarudniy, L.S. Berg, A.F. Middendorf, V.F. Oshanin, A.N. Krasnov, I.G. Borshchov va boshqa olimlar ishtirok etdilar va ko'plab ilmiy geografik kashfiyotlar, umumlashmalar yuzaga keldi.

I.V.Mushketov Turkistonni berk havzasidan iborat o'ziga xos tabiiy o'lka ekanligini, uning tabiiy chegaralarini belgilab, ularni asoslab berdi va o'lkaning orografik sxemasini yaratdi. N.A. Severtsov o'z izlanishlari asosida O'rta Osiyoning har xil tog'li rayonlari o'ziga xos balandlik mintaqalariga ega ekanligini isbot qildi.

XX asr boshlarida yerlardan unumli foydalanish, yangi yerlar ochish, qo'shimcha ishchi kuchlarni jalb qilish maqsadida Rossiya O'zbekiston hududiga yangi ekspeditsiyalar jo'natdi. Toshkentda har xil tashkilotlar, Andijonda, Mirzacho'lda qishloq xo'jaligi tajriba stantsiyalari, «Gidrometrik bo'linma» va boshqalar tuzildi. Rossiya dehqonchilik vazirligida tuzilgan «Aholini ko'chirish» va «Erlar holatini yaxshilash» boshqarmalari O'zbekiston hududidagi aholi yashamaydigan bo'sh yerlarni aniqlash, ularning tabiiy sharoitini o'rganish va ularga baho berish va yerlarga Rossiyadan yersiz dehqonlarni ko'chirib olib kelish maqsadida qator ekspeditsiyalar uyushtirdilar. 1911-1915 yillarda S.S.Neustruev rahbarligida Farg'ona vodiysi, N.A.Dimo boshchiligida Mirzacho'l, Qarshi, Quyi Amudaryo tuproqlari o'rganildi, L.S.Berg «Orol dengizi ekspeditsiyasining ilmiy natijalari» nomli asarini yozdi. Bu davrda rossiyalik tadqiqotchilar olib borgan ishlari qanchalik katta natijalarga erishgan bo'lmasin, asosiy maqsad O'zbekistonning tabiiy boyliklaridan metropoliya manfatlari uchun ko'proq foydalanishga, ruslarni ko'proq ko'chirib kelib, mustamlakachilikni yanada mustahkamlashga qaratilgan edi.

**O’rta Osiyoda geografik tasavvurlarning sho’rolar davrida rivojlanishi.** O’rta Osiyoda sho’ro davrida geografiyaning rivojlanishi quyidagi o’ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi:

1. 1917 yil oktyabr’ inqilobidan so’ng O’zbekistonning tabiiy boyliklarini talashni endi sho’rolar hukumati davom ettirdi. Mamalakatimiz boyligidan metropoliya manfaatlari uchun samarali foydalanish maqsadida O’zbekistonda geografik tadqiqotlar sur’ati oshirilib, ko’lami kengaytirildi.
2. Umumiy geografik va maxsus hududiy tadqiqotlar ko’lami kengaydi. Ilmiy ekspeditsiyalar marshrutlari mamlakatimiz hududida turli yo’nalishda kesib o’tib, uning tabiiy sharoitiga iqtisodiy jihatdan baho berish, tabiiy boyliklarni aniqlash va ulardan o’z maqsadlarida foydalanish yo’llari belgilandi. SHo’rolar o’z maqsadlariga erishishni tezlashtirish maqsadida O’zbekistonda mahalliy ilmiy tashkilot va muassasalar tashkil etdilar. Turkiston–O’rta Osiyo-Toshkent-(hozirda O’zbekiston Milliy) universiteti tabiatshunos va geograflar tayyorlash, geografik tadqiqotlarni uyushtirish va o’tkazish, shuningdek yangidan-yangi ilmiy yo’nalishlarni yaratishda katta rol’ o’ynadi. Keyinchalik O’zbekiston Fanlar Akademiyasi (1943), shuningdek Respublikamizda oliy o’quv yurtlari hamda ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari ham o’lka tabiiy sharoiti va resurslarini o’rganishga o’z hissalarini qo’shdilar. SHo’rolar davrida O’zbekiston tabiatini o’rganish asosan 3 yo’nalishda: ekologo-geografik, qiyosiy-geografik va regional-landshaftshunoslik yo’nalishlarida rivojlandi.

SHo’rolar hokimiyatining dastlabki yillari O’zbekiston tabiiy sharoitini sovet hokimiyatining talablaridan kelib chiqib, qishloq xo’jaligi nuqtai-nazaridan o’rganishga va sanoatini eng muhim mahalliy tabiiy xom ashyolar bilan ta’minlashga katta e’tibor berildi. Mamlakatimiz hududi umumiy geografik jihatdan yetarli o’rganilmaganligi sababli inqilobdan oldin boshlangan geografik tadqiqotlar davom ettirildi, xalq xo’jaligi va ilmiy maqsadlar uchun geografik xaritalar yaratish ishlari olib borildi. Bu ishlarni amalga oshirishda Fanlar Akademiyasi va SAGU olimlarining xizmati katta bo’ldi. Fanlar Akademiyasi ekspeditsiyalari ko’proq cho’llar va tog’lar yer bag’rida sanoat xom ashyosini izlab

topish va zahirasini aniqlash bilan shug'ullangan bo'lsa, universitet olimlari tomonidan dala sharoitida tabiatning barcha komponentlari o'rganildi. Bunda universitet qoshida tashkil etilgan ilmiy-tekshirish institutlarining xizmati katta bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushidan oldingi besh yilliklar (1929-1941 yy) davrida O'zbekiston tabiati komponentlari bo'yicha ham, tabiiy komplekslar bo'yicha ham keng chuqur o'rganildi, maxsus hamda umumiy geografik xaritalar tuzildi. Bu ishlarni amalga oshirishda markaz va yerli olimlar samarali ish olib bordilar.

Geologik-geomorfologik umumlashma va g'oyalarga boy uch jiltli «O'zbekiston geologiyasi»ning bosilib chiqishi katta voqea bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston tabiatini o'rganish va tabiiy boyliklarni aniqlash borasida tadqiqotlar davom etdi. Kompleks va tarmoq geografik ekspeditsiyalari uyushtirildi, aniq daliliy ma'lumotlar to'plandi.

Urush yillarining ehtiyojlari geologik va botanik tadqiqotlar mavzularini amaliy maqsadlarga moslashtirish va yanada jonlantirishni taqazo etdi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda (1946-1960 yy) O'zbekiston tabiati barcha komponentlar bo'yicha jadal o'rganildi, yangi ilmiy maktab va yo'nalishlar vujudga keldi. Tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarni o'rganish, ularni ishlab chiqarishga jalb qilish maqsadida yirik ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. Bu sharoitda o'zbek olimlarining hissasi juda katta bo'ldi. SHular jumlasidan O'rta Osiyo tabiatini va boyliklarini o'rgangan yirik olimlardan ekolog-geogaflar N.A.Dimo, D.N.Kashkarov, Ye.P.Korovin, R.I.Abolin, K.Z.Zokirov, T.Z.Zohidov, I.A.Raykova, geograflar N.L.Korjinevskiy, N.D.Dolimov. M.Q.Qoriev, L.N.Babushkin, Z.M.Akramov, H.H.Hasanovni alohida qayd qilib o'tish mumkin.

1960-1990 yillarda O'rta Osiyo ham geografiya jahon geografiya fanining bir bo'lagi sifatida mazmunan chuqurlashib, tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlikni tadqiq etuvchi, masalalarni konstruktiv (amaliy) hal qiladigan fan darajasiga ko'tarildi. Geografik tadqiqotlar geografik qobiq, va tabiiy-hududiy komplekslarda ro'y berayotgan va amalga oshirilayotgan tabiiy va ijtimoiy

jarayonlarni o'rganish, ularning o'zaro bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlash va baholashga, istiqboldagi o'zgarishlarni bashorat qilishga qaratildi.

Toshkent davlat universiteti (hozirda O'zMU) tabiiy geograflari tabiat bilan jamiyatning o'zaro ta'siri va uning oqibatlarini, mamlakatimiz tekislik va tog'lik hududlari tabiiy xususiyatlari va boyliklarining barqarorligi hamda o'zgaruvchanligining bashoratlash, tabiatdan foydalanishning ekologik-geografik asoslarini ishlab chiqish bilan shug'ullandilar. Bu bilan O'zbekistonda amaliy geografiyaga asos solindi.

XX asrning 60-yillarida O'zbekistonda hududining tabiatidan va uning resurslaridan to'g'ri foydalanishga bag'ishlangan birinchi ish O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish monografiyasi nashr etildi. (L.N.Babushkin, N.A.Kogay, 1964). Bu ishda O'zbekiston hududi 40 ta tabiiy geografik rayonga ajratilib, ularning har biriga hududdan xo'jalikda oqilona foydalanish nuqtai nazaridan baho berildi. SHundan keyin o'zbek geograflaridan SH.S.Zokirov CHirchiq-Ohangaron tabiiy rayoni landshaftlari va ulardan oqilona foydalanish, A.A.Rafikov Mirzacho'l meliorativ geografiyasi, P.N.G'ulomov Zarafshon vodiysi cho'l-voha chegarasidagi qishloq xo'jaligiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy geografik jarayonlar, I.A.Hasanov Qarshi cho'li tabiiy sharoitiga qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan baho berish, A.Zaynutdinov Toshkent atrof hududlari tabiatining tarkib topishi A.S.Soatov tabiiy sharoitni shahar qurilishi nuqtai nazaridan baholash mavzularida ilmiy ishlarni olib borishdi. Birqancha monografiya va ilmiy maqolalar nashr etildi. XX asrning 80- yillariga kelib O'zbekistonning ikki jildli kompleks geografik atlasi nashr etildi.

XX asrning 60-90 yillarida geografik tadqiqotlar amaliy geografik muammolar inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni, xususan tabiat va atrof muhitni muhofaza qilish, tabiatni oqilona o'zlashtirish, tabiiy boyliklardan samarali foydalanish masalalarini tadqiq qilishga qaratildi. CHunki bu vaqtga kelib Orol, Orol bo'yi, atrof muhitning, hususan qishloq xo'jaligi hududlarida tabiatning ifloslanishi muammolari paydo bo'lgan edi.

## 1.2. O'rta Osiyo tabiatining tarixiy taraqqiyoti

O'rta Osiyoning geoglogik tuzilishi xilma-xil bulib, uning xududi asosan ikkita katta tektonik struktura, ya'ni Tyanshan epigertsin orogen va turon epigertsin plitasi kismlaridan iborat.

Tyanshan epigertsin orogen O'rta Osiyoning togli kismlarini egallagan va xar xil katta qishiklikdagi tektonik strukturalardan tashkil topgan bulib ulardan eng kattalari antiklinar burmali strukturalardir. Bulardan asosiy lari Shotkol, Qurama, Zarafshon va boshka strukturalar xisoblanadi. Turon epigertsin plitasi respublikaning tekislik kismini egalagan bulib, u xam xar-xil qishik tektonik strukturalardan (kutarma va shukmalar) tashkil topgan.

Orogen va plitali strukturalar gertsin va alp tog paydo bulish davrlarida xosil bulgan va turli katta-kishiklardagi va yunalishdagi yer yoriklari (razlomlari) bilan kesilgan. Mazkur yoriklar orkali neogendan boshlanib xozir xam davom etayotgan yangi tektonik xarakatlar ta'sirida tektonik strukturalar turli balandliklarga kutarilgan ba'zilari shukkan natijada biz xozir kurib turgan tog tizmalari va ular orasida joylashgan tog oralik shukmalari paydo bulgan.

Gertsin tog paydo bulish davrida tektonik xarakatlar bilan bir katorda vulkan jarayonlari xam sodir bulgan. Vulkanik yer yoriklari buylab sodir bulgan gidrotermal va boshka jarayonlar natijasida O'rta Osiyo xududida joylashgan rudali rangli nodir kimmatbaxo foydali kazilmalar xosil bulgan.

O'rta Osiyo xududi ugeologik tarakkiyoti mobaynida juda ko'plab muxim poleotektonik va poleografik jarayonlarni utagan. Geosnklinal sharoitda sodir buladigani jarayonlar bir nesha marta takrorlangan. ko'p yillik olib borilgan geologik tekshirish ishlari shuni kursatadiki O'rta Osiyo va unga kushni xududlar geologik tarixini yukori arxey davridan boshlab tiklash[21]mumkin. Bu davrda xududda bir nesha dengizj xavzalari mavjud bulib ularni ajratib turgan quruqliklarda terrigen vulkanik va korbanat tog jinslari tuplagan bu tog jinslari arxey davrining oxirlari va proterozoy davrining boshlanishida metamorfozlashgan.

Proterozoy davrining oxirida Janubiy Tyanshan toglari urnida shikish jarayonlari urnida dengiz paydo bulgan. Bu davrda Oloy Turkiston Zarafshon va Xisor tizmalarining janubida Korakum-Tojikiston shimolida esa Shimoliy Kizilkum tekisligi joylashgan bulgan. Yukori rifeyda O’rta Tyanshanning shimolida vulkanlar otilgan.

Proterozoyning kembriga utish davrida (vend) Oloy, Turkiston, Zarafshon va Xisor tizmalari urnidagi dengiz tektonik xarakatlar natijasida shekinib uning urnida toglar xosil bulgan vendning oxiriga kelib esa tektonik xarakatlarning sunishi va yemirilishi jarayonlarining kushayishi okibatida u xududning yer yuzasi tekislangan.

Kembriyning boglanish davriga kelib xududni yana dengiz bosa boshlaydi va O’rta ordavikda O’rta Osiyo xududining Sharkiy va Janubiy Sharkiy kismini dengizlar butunlay egallaydi. Ordovikning oxirlarida tog paydo bulish jarayonlari boshlanadi va kuyi devonida xududdan dengiz shekinadi, fakat Oloy, Turkiston, Zarafshon va Xisor tizmalari urnida kisman saklanib koladi. Bu yerda dengiz O’rtasida fark qishik orollargina mavjud bulgan. Bu davrda ba'zi bir joylarda vulkanlar otilib turgan.

O’rta devon va Kuyi triasda tektonik xarakatlar yana faollashadi. Shimolda Koratog, Shotkol va Norin, Janubda Tyanshan va Kukshagaltog eleplatforma giotsenkllinallari, ularning orasida platformaning nisbatan barkaror kismi Qurama-Farg’ona oralik massivi, O’rta Osiyoning shimoliy-garbiy kismida Ustyurt massivi xosil bulgan.

Devonning oxirida (eyfel, jivet asarlarida ) xamda yukori devonning famel asarida O’rta Osiyoning katta kismini dengizlar egallaydi. Shu davrda vakti vakti bilan kushli tektonik xarakatlar va vulkan jarayonlari xam bulib turgan. Vulkanlar otilishi janubiy Tyanshan toglarida tosh kumir davrining kuyi (Namyur, yoki Serpuxov asarlarida ) va O’rta (boshkirt asri) bulimlarida xam sodir bulgan.

O’rta Osiyo va unga yondosh xududlarningn tektonik kurinishining shakllanishida toshkumir davrining Moskva asrida bulib utgan. Tektonik xarakatlar ayniksa katta rol uynagan. Yukori karbonning oxiri va perm davrlarida xozirgi

oloy tizmasi, Farg’ona shukmasi, Ustyurt platosi va Amudaryo xavzasi kuyi kismlarini yana dengiz bosgan. Fakat Koratog, Shokkol va Janubiy kismidagi Tyanshanning ba'zi bir kismlarida tektonik xarakatlar sodir bulib, Korjantog va Qurama toglari joylashgan xududlarida vulkanlar xam otilib turgan.

Peremning oxirlari va Triasning boshlanish davrlarida Ustyurt, janubiy Farg’ona xududlarini dengiz bosgan, boshka xududlarda esa kurikliklar mavjud bulib, ular asosan tekisliklardan iborat bulgan. Triasning O’rtalarida xududda asosan tekisliklar xukum surgan ba'zi bir joylarda supa toglar kutarilib turgan.

Kuyi va O’rta Yurada O’rta Osiyo xududida asosan sharoiti xukum surgan. Yukori Yurgon kelib jumxuriyatimizning anshagina kismini Tetis okeanining rel'ef kismini egallagan. Poleogen davriga kelib tektonik xarakatlar boshlangan, birok O’rta Osiyoning tog va tekislik kismlari dengiz ostida bulib, fakat uning togli kismining ba'zi joylardagina qishik-kishik orollargina kutarilib turgan, birok bu orollarning joylashgan urni va katta qishikligi xozirgasha aniklanmagan.

Poleogen dengizi ostida xosil bulgan tog jinslaridan (asosan oxaktoshlar) topilgan. Shigonaklar O’rta Osiyo xududidagi poleogen dengizining shukukrliligi 200 m dan oshmaganligi kursatadi. Shunday kilib polergen dengizi ostidan shikkan vakti O’rta Osiyo xududi deyarli tekislikdan iborat bulgan. Poleogen davrining oxirlarida esa tektonik xarakatlar ansha faollashgan natijada oligotsenning oxirlarida dengizi butunlay shekingan, Turon plitasi vujudga kelgan. Neogen davriga kelib O’rta Osiyoning togli kismida yangi tektonik xarakatlar faollashadi. Bu tektonik xarakatlar defferentsial xarakterga ega bulgan, tog tizmalari kutarilib, tog oralik va tog oldi botiklari shuka boshlagan. Olib borilgan geologik ishlari natijasida Oloy-Turkiston tizma toglari dengiz satxidan 4500 m balandlikda oligotsep davrida taxminan undan 38 mln yil avval dengizda yashagan ekzogiro- fergonepdis deb ataluvshi Shigonok topilgan.

Demak, usha davrida bu Shigonok dengiz satxidan 400 metr pastda yotgan. Keyingi tektonik kutarilish natijasida Shigonok yotgan shukkindi tog jinslari dengiz satxidan yana 4500 metr balandlikka kutarilgan. Shunday kilib, O’rta Osiyo xududining togli kismi oligotsen davridan to xozirgi davriga kadar 8500

metr kutarilgan. Shunday kilib, O’rta Osiyoning togli kismida tektonik xarakatlar turli xarakter va kushga ega bulgan. Uning bir kismi kutarilsa, ikkinshi bir kismi esa tog oralik botiklarga tugri keladi. Kutarilayotgan kismlardan okar suv va boshka tabiiy jaroayonlar ishi ta'sirida yemirilgan tog jinslari shukayotgan joylarga tuplana boshlagan. Bunday jarayon niogen davridan boshlangan. Tog oralik botiklardagi neogen davrida yotkizilgan tog jinsi  katlamlarining tarkibi shuni kursatadiki bu, tog tizmalarining kutarilishi va yotkizilgan  katlamlar asosan gilli va kumli tog jinslari tashkil topgan. Bu gilli va kumli katlamlarning ustki kismlari esa kalin kum aralash shagal toshlardan tashkil topgan. Bu xol botiklar urab turgan tog tizmalarining keyinshalik kutarilishi kushayganligidan dalolat beradi. Demak, neogen davrlari oxirlaridan boshlab  tektonik xarakatlardan differentsiyalashganligi ansha kushaygan. Tog tizmalari kutarilishi va tog oralik botiklarining shukishlari uzok vakt davom etgan, natijada tog oralik  botiklarida kalinligi bir nesha ming metr keladigan shukindi tog jinsi katlamlari turlangan. Masalan: prof. N.P.Vasilkovskiyning yozishisha  neogen davrida Shirshik botigida tuplagan tog jinslarining kalinligi 1500 metrdan ziyoddir.

Turtlamshi davrning boshlariga kelib tektonik xaraktlarining xarakteri bir munsha uzgargan. Agar neogen davrida tog tizmalari kutarilib, ular oraligidagi botiklar shukkan bulsa, bu davrdan boshlab tog oralik  botiklari xam kutarila boshlagan. Turtlamshi davr mobaynida  O’rta Osiyo xududdining togli kismi doimo kutarilabermay, ba'zan  tinsh turish davrlari xam bulgan. Bu daryo vodiylarida xosil bulgan  terrassalar tasdiklaydi. O’rta Osiyoning togli kismini, daryo vodiylarini, masalan, Shirshik daryosining vodiysini kuzatadigan bulsak kuyidagilarni kursak buladi. Bu daryoning uzanidan uning yon bagri  buylab kutarila boshlasak,  daryoning uzani xozirgi vaktda  neogen, mezozoy yoki poleazoy  davrlarda  yotkizilgan  katlamlar ustidan okayotganligini kuzatamiz. Uning birinshi terrassasi yon yubagri kesmasining kuyi kismi  xam neogen yoki mezozoy, polezoy davrlarining katlamlaridan tashkil topgan, yukori kismi esa kum aralash shagal toglar, ularning sementlanishi natijasida xosil bulgan kongmeratlar

va soz  tuproqlaridan iborat. Shirshik daryosining deyarli xamma  terrassalari shu tarzida utkazilgan.

O’rta Osiyo xududining togli kismida nesha marta kutarilish va tinsh turish davrlari bulganligini aniklash ushun daryo vodiylardagi terrassalar sonnini aniklash zarur. Olib borilgan geologik va biomorfologik tekshirish ishlari natijasida Shirshik daryo vodiysi yon bagirlarida 20 ga yakin terrassa xosil bulganligi aniklangan. Ba'zi terrassalar daryo uzanidan balandligi 800 metrdan oshmaydi. O’rta Osiyoning tog kismining  xamma xududlarida tektonik kutarilishi va tinsh turish jarayonlari bir vaktda sodir bulmagan. Shuning ushun toglardagi xamma daryo vodiylarida terrassalarning soni tuzilishi turlishadir.

O’rta Osiyo togli kismida tekshiri shlar olib borgan geologik va gemorfolog olimlar (G.O.Movlonov, M.M.Mamatkulov, G.F.Tetyuxin  va boshkalar) turtlamshi davr mobaynida bu xududda turt marta kushli kutarilish va tinsh turish davrlarni bulganligini aniklaganlar. Birinshi davr turtlamshi davrning boshlanish kismini uz ishiga oladi. Professor Yu.A.Skvortsov bunga nanay davri deb nom bergan. Nanay davrining boshlanishida kushli tektonik  kutarilishlar sodir bulgan, birok tog tizmalari unshalik baland bulmagan. Bu davrning ikkinshi yarmida esa tektonik kutarilishlar tuxtagan va daryo uzanlarida anshagina kalin tog jinslari katlamlari tuplangan. Masalan: Piskon daryosining vodiysida tog jinslari katlamlarining kalinligi 300 metrdan oshgan. Nanay tog jinslari katlamlari piskom daryosining shap yon bagrida xozirgi daryo uzanidan 800 metr balandlikda yaxshi saklanib kolgan. Bu darvda toglarning kutarilganligi va itklimining uzgarganligi natijasida toglarning  eng baland kismida muzliklar  xosil bulib u yerlarni muz koplagan fakat ayrim joylardagina muzliklar O’rtasida shukkilar kutarilib turgan. Nanay davrining ikkinshi yarmida iklimning issik tomonga uzgarishi okibatida muzliklar erigan, muzliklarning erishidan xosil bulgan suv daryolarning O’rta va kuyi kig`smlariga yukorida kursatilgan shagal tosh va soz tuproq katlamlarini olib kelib  yotkizgan.

Tog'li rayonlarning baland qnsmida bir yilgi yog'ayotgan qor yoz davomida erib ulgura olmaydi va uning ustiga yana yangi qop qatlami tushila boshlaydi. Bu bir necha yil qaytarilgandan so'ng, oldingi erib ulgura olmagan qop qatlamlari tog'larning pastlik joylarida muzga aylanadi. Muzliklarning hosil bo'lishida, ayniqsa, shamol katta rol' uynaydi. CHunki tog'larda doimo esib turuvchi kuchli shamol yog'ayotgan qorlarni olib kelib pastlik joylarga to'playdi va ular

yig'ilib muzga aylanadi. Bundan tashkari, muzliklariing hosil bo'lishida va ular hajmini ortishida muzlik hosil bo'lgan pastlik joylarning yon bag'irlaridan o'pirilib tushayotgan qor (qor kuchqilari) katta hissa qo'shadi.

Umuman Yer yuzida qadimgi muzliklariing xosil bo'lishi murakkab jarayondir. Ularning paydo bo'lishida bitta faktorii ko'rsatish qiyin albatta. Muzliklar hosil bo'lgan joyning sharoitiga karab bir jarayon ikkinchi jarayon o'rnini egallashi mumkin. Qadimgi muzliklar tog'larning ko'tarilishi natijasida ham, kuruqlik va okean - dengizlarning o'z o'rnini o'zgartirishi natijasida ham, okean - dengizlardagi issiq va sovuq oqimlari o'z yo'nalishlarini o'zgartirishi natijasida ham paydo bo'lishi va tarakdiy etishi mumkin.

**O'rta Osiyo tog'larida muzlik davrlari.** To'rtlamchi davr mobaynida O'rta Osiyo tog'larida nechta muzlik davri bo'lganligi ancha chigal masalalardan biri xisoblanadi. Bu muammo juda kup yillardan beri qadimgi muzliklar masalasi bilan shug'ullanuvchi olimlarni kiziqtirib kelmotsda. Bu masala yuzasidan olimlar o'rtasida turli fikr va muloxazalar bor.

Qadimgi muzlik davrining soni, masalasi buyicha hozirgi davrda geolog va geograf olimlar O'rtasida ikkita oqim hukm surib kelmokda. Birinchi oqim buyicha O'rta Osiyo tog'larida to'rtlamchi davr mobaynida faqat bir muzlik davri bo'lgan. Ikkinchi okim bu davrda bir qancha muzlik davrlari bo'lgan deydi.

Olimlardan S. V. Kalesnik, R. D. Zabirov, A. A. Kreyterlar Pomir, Oloy va Markaziy Tyan'shan' tog'larining qadimgi muzliklarining qoldik;larini tekshirib, bu rayonlarda faqat bir muzlik davri bo'lgan degan xulosaga kelishsa, D. V. Nalivkin, D. I. Mushketov, O. K- CHediya, N. A. Gvozdetskiy. Yu. A. Skvortsov, V. O. Epshteyn, V. V. Reznichenko, G. Mertsbaxer, G. Prints, S. Ye. Dmitriev, Yu. Ya. Kuznetsov, N. M. Sinitsыn, K. Trofimov, K. M. Mirzaev, K. K. Markov, F. Sidorov, A. L. Reyngard va boshqalar Pomir, Markaziy va

G’arbiy Tyan’shan’, Oloy, Hisor, Orqa Oloy, Farg’ona va boshqa tog’li rayonlarning qadimgi muzlik qoldiqlarini tekshirib u tog’larda to’rtlamchi davr mobaynida ikkita muzlik davrlari bo’lgan deyishadi.

Yana boshqa bir guruh olimlar N. P. Kostenko, V. V. SHumov, V. A. Vasil’ev, N. N. Palgov, V. I. Ognev, V. Popov va boshqalar O’rta Osiyo tog’larining turli rayonlarida uchta qadimgi muzlik davri bo’lgan desa, M. I. Lomonovich, V. I. Popov, Ya. A. Leven, L. I. Turbin, M. M . Mamatkulov va boshqalar to’rtta qadimgi muzlik davri borligini aytishgan.

O’rta Osiyo tog’larida qadimgi muzlik davrining soni masalasi yuzasidan turli fikrlar bor ekan. Xatto ba’zi olimlar V. Devis Ye. Xengtineten va boshqalar bu tog’larda beshta, xatto o’nta muzlik davri bo’lgan degan fikrni aytishgan.

## 2.2. O’rta Osiyo tog’larida qadimgi muzliklarning tarqalishi va ularning kattaligi

O’rta Osiyo tog’larining ko’p rayonlarida qadimgi muzliklar qoldirgan izlar keng tarqalgan. Bular shuni ko’rsatadiki qadimgi muzlik hozirgi zamon muzliklariga nisbatan juda katta maydonlarni egallagan. Ko’pchilik rayonlarda hozirgi muzliklar qadimgi muzliklarning kichik qoldiqlari hisoblanadi.

I. A. Suetovaning ko’p yillik olib borgan ishlari natijasida tog’larida tarqalgan qadimgi muzlik maydonlari hisoblab chiqildi. Uning hisobi bo’yicha O’rta Osiyo va Qozogiston tog’larida qadimgi [51] muzliklar maydoni, ular juda keng tarqalgan davrida 176 ming kv km bo’lgan, hozirgi zamon muzliklarining maydoni esa yuqorida ko’rsatganimizdek 16,7 ming *kv km* dir. Qadimgi muzliklar tarqalgan rayonlarning yer usti tuzilishi muzliklar bo’lmagan rayonlarning yer usti tuzilishidan butunlay farq qiladi. Demak, qadimgi muzliklar tog’ rayonlarining yer usti tuzilishiga katta ta’sir qilgan va ozmi-ko’pmi

o'zgartirgan.

O'rta Osiyo tog'larida, janubda Pomir tog'laridan shimolda SHimoliy Tyan'shan' tog'larigacha bo'lgan territoriyada geolog, geograf olimlarning olib borgan tekshirish ishlari bu rayonlarda qadimgi muzliklarning izi juda keng tarqalganligini ko'rsatdi. Bularning izlari ba'zi rayonlarda juda yaxshi saqlangan, ayrim rayonlarda esa ular keyingi yemirilish va yuvilish protsesslari natijasida yo'qolib ketgan.

O'rta Osiyo tog'larida qadimgi muzliklarning eng keng tarqalgan izlaridan biri trog ko'rinishiga ega daryo vodiylaridir. Ko'pchilik daryolarda faqat troglarninggina yelkalari saqlanib qolgan. Umuman O'rta Osiyo tog'laridan boshlanayotgan deyarli hamma daryolarning yuqori oqimi trog shakliga ega, ular yuvilish va yemirilish protsesslarida bir muncha yaxshi saqlangan, daryolarning pastki oqimlarida esa troglar ancha yemirilgan va o'z ko'rinishini yaxshi saqlamagan.

O'rta Osiyo tog'lari ichida qadimgi muzliklarning eng keng tarqalgan rayonlaridan biri Pomir tog'lari hisoblanadi. Pomir tog'lari muzliklarini maxsus o'rgangan olim R.D.Zabirov o'zining 1955 yilda nashr qilgan kitobida Pomir tog'larining tabiati va qazilma boyligiga bag'ishlangan deyarli hamma ilmiy asarlarda bu tog'da qadimgi muzliklarning izlari yaxshi saqlangani va qadimgi muzliklar to'rtlamchi davr mobaynida juda katta maydonlarni egallagani haqida ma'lumotlarni uchratamiz, deb juda to'g'ri yozadi. Pomir tog'larida qadimgi muzliklar keng tarqalganligi to'g'risida ma'lumotlarni hatto o'tgan asrda Pomir hakida yozilgan asarlarda ham uchratamiz. D.I.Ivanov, S.S.Neustriev, O.E.Kiofring, boshqa sayohatchi va olimlar Pomir tog'larida qadimgi muzliklarning izlari yaxshi saqlanganligini ko'rsatib, buning sababn bu rayon iqlimining quruqligi va oqar suvlari yuvish kuchining zaifligi natijasida deb tushuntirgan.

O’rta Osiyo, ayniqsa Pomir tog’larining qadimgi muzliklari problemasini hal qilishda akademiklardan D.V.Nalivkin, V. I. Popov, prof. K. K. Markov, Ya. S. Edel’shteyn va boshqa olimlarning xizmati nihoyatda kattadir.

Akademik D. V. Nalivkin Pomir va Oloy tog’larining ko’p rayonlarini tekshirib, deyarli hamma joyda qadimgi muzlik izini topdi. U qaysi rayonda muzliklarning qanaka turlari tarqalganligini ko’rsatib berdi. D. V. Nalivkinning fikricha, G’arbiy Pomir tog’larida vodiy muzliklari. SHarqiy Pomirda **TOG’** etagi muzliklari tarkalgan. Bundan тарщari, D. V. Nalivkin bu tog’lardagi kupgina qadimgi muzliklarning katta-kichikligini aniqlagan. Uning fikricha, SHimoli-G’arbiy Pomir tog’laridagi Xingou daryosining vodiysi uzunligi 70 *km* keladigan muzlik bilan qoplangan va 20 ga yaqin irmoqlar qabul qilgan.

Akademik V.E.Popov Pomir tog’larining qadimgi muzliklariga bag’ishlab maxsus kitob yozgan. V. I. Popov Pomir tog’laridagi deyarli hamma daryo vodiylarini birma-bir kezib chiqib, qadimgi muzliklar ko’p daryolarni to quyilish qismigacha koplagan degan fikrga kelgan. Bu olimning keyingi olib borgan ishlari shuni ko’rsatdiki, Pomir tog’larida qadimgi muzliklar O’rta Osiyoning boshqa tog’lariga nisbatan katta maydonlarni egallab yotgan. Olimlarning keyingi olib borgan tekshirish ishlari shuni kursatdiki, Pomir tog’larida eng katta va uzun muzliklar Muksu daryosining havzasida bo’lgan. Bu vodiyni qadimgi muzliklar qoplaganligini 1897 yildayoq sayyoq olim V. I. Lipskiy ko’rsatib ketgan. O’rta Osiyoda eng katta muzlik hisoblangan Fedchenko muzligi o’sha qadimgi muzlikniig koldigi hisoblanadi. Keyincha professor K. K. Markov, akademik I. P. Gerasimov, O. K. CHediya va boshqalarning olib borgan tekshirish ishlari shuni isbotladiki Muksu daryosi vodiysini qopla qadimgi muzlikning uzunligi to’rtlamchi davrning boshlarida 180-190 *km* ga yetgan va dengiz sathidan 1900 *m* pastgacha surilib

tushgan. Qadimgi muzlik faqat Muksu daryosining vodiysi bo'ylab harakat qilmay, balki u daryoning Petr I va O'rta Oloy tog'laridan boshlanuvchi irmoqlarini va qo'shni vodiylarni ham qoplatadi, u qadimgi muzlik daraxtsimon ko'rinishga ega bo'lgan.

Muksu daryosining irmoqlaridan kelib qo'shilgan muzliklariing uzunligi 60 *km* gacha yetgan. Bunday uzunlikka ega bo'lgan qadimgi muzliklar Pomir tog'larining boshqa daryo vodiylari Vanch, Yazg'ulom, Gunt, Bartang, SHog'dara va boshqalarda ham bo'lgan. Qadimgi muzliklar faqatgina uzun bulmay, ularning qalinligi ham katta bo'lgan. Masalan, Vanch daryosining vodiysida qadimgi muzliklariing qalinligi R.D.Zabirovning hisoblashicha 300-500, qatto 700 *m* gacha yetgan.

Qadimgi muzliklariing kengligi 2,5-30 *km* dan oshgan. G'arbiy Pomir tog'lari to'rtlamchi davrda daryolar bilan anchagina kesilgan. SHuning uchun bu rayonda yuqorida ko'rsatganimizdek juda uzun vodiy muzliklari daryo vodiylarida, ularning boshlanishida quyilish qismiga qarab harakat qilgan. SHarqiy Pomir tog'lari esa bunday chuqur daryo vodiylari bilan kesilmagan. Biroq, bu rayon ham tep-tekis bo'lmay, uzun, lekin uncha baland bo'lmagan tog'lar bilan qoplangan hamda ular kengligi va uzunligi bir necha o'n kilometr keladigan tog' oraliq chuqurliklari bilan ajralgan.

Qadimgi muzliklar shu tog' oraliq chuqurliklar bo'ylab harakat qilgan. Muzliklar ko'pincha chuqurliklarni o'rab olgan tog' tizmalarida hosil bo'lib, chuqurliklarga surilib tushgan va ular bir-birlari bilan ayrim joylarda qo'shilib katta-katta muz shchitlarini hosil qilgan. Ularning uzunligi 30-60 *km*, kengligi esa 10-12 *km* ga yetgan. Bu muzliklar ba'zi rayonlarda har tomondan harakat qilib kelib bir-biri bilan tutashmagan va keyin iqlimni o'zgartirish natijasida chekinib, balandligi 40-50 metrli morenalar qoldirgan. SHunday morenalar oralig'ida keyingi davrlarda katta-katta ko'llar

(Zorko’l, CHoqonko’l, Qorako’l va boshqalar) hosil bo’lgan. Ko’p rayonlarda esa bu muzliklar bir-biri bilan tutashib ketgan. Bunday muzliklarning qalinligi 1000 metrgacha yetgan. SHunday qilib, SHarqiy Pomir tog’larida qadimgi muzliklar hozirgi muzliklarga nisbatan 10-15 marta katta bo’lgan. SHarqiy Pomirda hozirgi davrda iqlim sharoiti quruq bo’lganligi sababli hozirgi zamon muzliklari juda kam tarqalgan.

To’rtlamchi davr mobaynida qadimgi muzliklarning eng keng tarqalgan rayonlaridan biri Oloy vodiysi hisoblanadi. Bu vodiyga uni o’rab olgan, janubdan Orqa Oloy tog’i va shimoldan Oloy tog’laridan boshlanuvchi daryo vodiylari bo’ylab muzliklar harakat qilib kelib, ular Oloy vodiysida bir-bnrlari bilan tutashgan va tog’ etagi muzliklarini hosil qilgan. Oloy va Orqa Oloy tog’laridan vodiyga kelib quyilgan muzliklarning uzunligi anchagina bo’lgan. Ularning uzunligi R.D.Zabirovning aniqlashicha turlicha bo’lgan. Masalan, Bauke chukur muzligi uzunligi 26 *km,* Komansu 32 *km,* Achchiqsuv 12 *km,* Kukkiyik 13 *km,* Oltindara 32 *km.* Bu daryolarning hozirgi muzliklari unchalik uzun emas, ba’zilarida deyarli uchratilmaydi.

Oloy va Turkiston tizma tog’larining shimoliy yon bag’ridan boshlanuvchi daryolarning yuqori oqimlarida qadimgi muzlik izlari ko’zga yaqqol tashlanib turadi. Qadimgi muzlik izlari ayniqsa Gulcha daryo vodiysida yaxshi saqlangan. Bu daryo yuqori oqimini to’rtlamchi davr o’rtalarida uzunligi 8 *km* day oshiq, kengligi *km* ga yaqin bo’lgan katta muzlik qoplab olgan. Bu muzlikka daryoniig chap irmoqlaridan katta-katta muzliklar kelib qo’shilgan. Irmoqlardan kelgan muzliklarning ham uzunligi anchagina bo’lgan. Masalan, Gulchaning chap irmog’i Agarchorta daryosida muzlikning uzunligi km, CHagir daryosida esa 4 km. Hozirgi davrda Gulcha daryosiiing boshlanish qismida muzliklar butunlay yo’q, irmoqlarining boshlanish qismida esa faqat kichik muzliklargina mavjud. Bunday katta muzlik

Oqbura daryo vodiysida ham bo’lgan. Bu vodiyda qadimgi muzlikning uzunligi 27 *km* ga yetgan.

Oloy va Turkiston tog’larining shimoliy yon bagridan boshlanuvchi boshqa daryo vodiylarida qadimgi muzliklarning uzunligi quyidagicha bo’lgan: Qirgizota (Aravan daryosining yuqori oqimida (8-9 *km,* CHile daryosida 32,5 *km* (kengligi 1 *km* ga yaqin).

Glatsiolog olim V. F. Suslovning hisoblashicha CHile daryosi vodiysida qadimgi muzliklariing umumiy maydoni 185 *kv km* ga yetgan, yoki hozirgi zamon muzliklarining maydoniga nisbatan 4,5 marta katta bo’lgan. Isfayram daryosining yuqori oqimida ham katta muzliklar bo’lgan. Uning o’ng irmog’i Tegirmach daryosining yuqori oqimi to’rtlamchi davrniig o’rtalarnda uzunligi 10 *km* ga yaqin muzlik bilan qoplangan.

SHohimardon daryosining o’ng tarmog’i Ko’ksuv hamda, Archaboshi daryo vodiylarida qadimgi muzliklar bo’lgan. So’x daryo vodiysida qadimgi muzliklariing uzunligi anchagina katta bo’lgan. To’rtlamchi davrda So’x daryosining va uning irmoq va tarmoqlarining vodiylari katta muzliklar bilan qoplangan. Bu muzliklariing uzunligi to’rtlamchi davrning boshlanish davrida 36 *km* ga yetgan, kengligi esa 2 km dan oshgan.

Isfara daryosining yuqori okimida qadimgi muzliklarning uzunligi 8 *km,* Kashimish daryosida 6 *km,* Nurlav daryosida 18 *km,* Koravshin daryosida va boshqa irmoqlarida ham shunga o’xshash katta muzliklar bo’lgan. Xo’jabaqirg’on daryosining yuqori qismida qadimgi muzliklarning uzunligi 12-14 *km* ga yetgan. [56]

Qadimgi muzliklariing eng taraqqiy etgan markazlaridan biri Tojikiston territoriyasidagi Zarafshon va Hisor tog’larining orasida joylashgan Markaziy Kubistom bo’lgan. Bu rayondan Zarafshon daryosi boshlanadi. Bu daryoning yuqori oqimida va uning irmoqlarining vodiylarida aniqlangan qadimgi muzliklariing uzunligi

20-40 *km* bo’lib, ular daraxtsimon shaklga ega bo’lgan. Zarafshon daryosining o’zidagi qadimgi muzlikning uzunligi esa 104 *kmga* yetgan, ya’ni hozirgi Zarafshon muzligidan 78 *km* uzun bo’lgan.

Qadimgi muzliklariing izlari Markaziy Tyan’shan’ tog’larida keng tarqalgan. Professor S.V.Kalesnikning yozishicha, qadimgi muzliklariing qoldiqlari bu rayonning hamma qismida uchraydi. Bu rayonning hamma daryo vodiylari klassik ko’rinishga ega - trog shaklidadir. Troglarning yon bag’irlarida qadimgi muzliklarning boshqa izlari - qo’y peshonalari hatto yuvilishga chidamsiz bo’lgan slanets toshlarida ham yaxshi saqlangan. Deyarli hamma joyda morenalar uchratiladi. SHular bilan bir qatorda diametri 3-7 metrli erratik xarsang toshlar ham uchraydi. Uzunligi 117 metr, kengligi 8-9 metr xarsang tosh Markaziy Tyan’shan’ meteorologiya stantsiyasi yaqinida uchratilgan. SHu narsa xarakterliki, Markaziy Tyan’shan’dagi qadimgi muzliklarning izlari keyingi suv va boshqa yemirilish jarayoni bilan deyarli o’zgarmagan, morenalar qanday yotqizilgan bo’lsa, troglar qanday ishlangan bo’lsa shunday saqlanmoqda. Bu rayoini qadimgi muzliklar qoldiqlarining «muzeyi» desak xato qilmagan bo’lamiz, albatta.

Markaziy Tyan’shan’ tog’larida qadimgi muzliklarning qalinligi juda katta bo’lgan. Qadimgi muzliklar tog’ oralig cho’kmalari, daryo vodiylarini butunlay to’ldirib, qushni rayonlar tomon harakat qila boshlagan. Masalan, Arabilsuv vodiysidagi qadimgi muzlik Ters Olotovi tizma tog’idagi dovonlardan oshib, Issiqkul tomon siljiy boshlagan va bu muzliklar Ters Olotovining shimoliy yon bag’ridagi daryolarning vodiylari orqali harakat qilib, Issiko’ga yetgan. Bu yerda muzliklarning uzunligi 30 *km* ga yaqinlashgan, qalinligi esa 500-550 metrdan oshgan. SHarqda Arabilsuv muzligi hozirgi Tyan’shan’ tog’laridagi eng katta muzliklardan biri hisoblangan Petrov muzligi bilan tutash bo’lgan va ularning uzunligi 61 *km,* kengligi 6-7 *km* va

qalinligi 300-400 metrli muz maschitini hosil qilgan. Bu rayonning boshqa muzliklarining uzunligi xam 50 *km* dan oshiq bo'lgan. Ba'zi muzliklarning qalinligi 700 metrga yaqin bo'lgan. G. Bondarevning hisoblashicha, Markaziy Tyan'shan'dagi Akshiyrak tog' massividagi qadimgi muzliklarning maydoni 3150 *kv km* ga teng bo'lgan, bu rayonning hozirgi zamon muzliklarining umumiy maydoni esa 730 *kv km* dan oshmaydi. SHunday qilib, Markaziy Tyan'shan' tog'larida qadimgi muzliklarning maydoni hozirgi muzliklarga nisbatan 5-6 marta ortiq bo'lgan.

Qadimgi muzliklar O'rta Osiyoning SHarqiy tog' tizmalaridan biri Xontangri tog' uzelida keng tarqalgan. Bu rayondan oqib utuvchi Sariq-Jas daryosining Qadimgi muzliklar o'z maydonini nega kamaytirib borgan!

O'rta Osiyo tog'laridagi hozirgi muzliklariing maydoni o'tgan davrlardagiga nisbatan ancha kamayib ketganligini oldingi sahifalarda ko'rsatib o'tgan edik. Bunga sabab birinchidan, iqlim sharoiti o'zgarishi bo'lsa, ikkinchidan, tog' rel'efining o'zgarishidir.

Tog'lar ko'tarilib, yillar o'tishi natijasida ular daryolar bilan kesila borgan. Avvallari usti tekis tog'lar endilikda daryolar bilan kesilib chuqur-chukur daryo vodiysiga aylangan. SHuning uchun unday joylarda muzliklarning saqlanib turishi uchun sharoit yomonlasha borgan. SHu sababli to'rtlamchi davrning O'rtalarida O'rta Osiyo tog'larida hosil bo'lgan qalin muz massivlari parchalanib, bir vaqtda ularning maydoni ham kamayib borgan.

O'rta Osiyoning tog'li rayonlarida oxirgi muzlik davri bundan taxminan 18 ming yil oldin tamom bo'lib, hozir muz oralik davrida yashamoqdamiz. Muz oralik davrida muzlik davriga nisbatan namgarchilik kamayadi. Havoning harorati ko'tariladi. SHu sababli muzliklar chekinib, o'z maydonlarini juda qisqartiradi, hatto ayrim rayonlarda muzliklar butunlay yo'q bo'lib ketadi.

Qadimgi muzliklar Yer sharining boshqa rayonlarida ham to’rtlamchi davr mobaynida keng tarqalgan bo’lgan. Taxminiy hisoblarga qaraganda, Yer sharidagi hozirgi muzliklariing umumiy maydoni 16-18 *mln km* bo’lsa, to’rtlamchi davrda Yer yuzining ko’p qismini muzliklar qoplaganda ularning maydoni 45 *mln kv km* ga yetgan, bulardan 30 *mln kv km* SHimoliy Yarim sharda bo’lib, hozirgi davrda uning maydoni deyarli 15 martaga kamaygan.

O’rta Osiyo tog’lari qadimgi muzliklarining tarqalishi, katta-kichikligi, soni, turlarini solishtirish maqsadida Yer sharining boshqa rayonlarining qadimgi muzliklari haqida ba’zi ma’lumotlarni keltirib o’tamiz.

To’rtlamchi davrda faqat quruqliklar emas, okeanlar ham katta va qalin muzliklar bilan qoplangan. Ularning maydoni shimoliy yarim sharda 15 mln, Janubiy Yarim sharda 10 million, hammasi 24 *mln kv km* ga teng bo’lgan. Yerning SHimoliy Yarim sharidagi quruqlik va okean muzliklari tutashib, ularning maydoni 50 *mln kv km* ga yaqinlashgan. SHunday qilib, to’rtlamchi davrda Yer sharining asosiy muzlik markazi SHimoliy Yarim sharda bo’lgan va hozirgi davrda muzlik markazi hisoblangan Antarktida muzliklarining maydonidan 2-3 marta ortiq bo’lgan.

Keyingi tekshirishlar shuni ko’rsatdiki, hozirgi davrda planetamizning SHimoliy Yarim sharining 15 protsentini muzlik qoplagan bo’lsa, to’rtlamchi davrda uning 75 protsentini egallagan. Janubiy Yarim sharda esa hozirgi muzliklar uning maydonining 85 protsentini egallasa, qadimgi muzliklar 25 protsentini qoplagan bo’lgan. Demak, to’rtlamchi davrda muzliklariing umumiy maydoni SHimoliy Yarim sharda ko’p bo’lgan, Janubiy Yarim sharda esa oz bo’lgan, hozirgi davrda esa buning aksi kuzatiladi.

To’rtlamchi davrda katta qadimgi muzliklardan biri SHimoliy Yevropada bo’lib, uning umumiy maydoni 6 *mln kv km* ga yetgan. Rus

pasttekisligida esa qadimgi muzliklariing maydoni 2.6 *kv km* dan oshgan.

## 2.3. O’rta Osiyo tog’laridagi qadimgi muzliklarning turlari

To’rtlamchi davr mobaynida O’rta Osiyo tog’larida kanday muz taraqqiy etgan degan masala olimlar orasida ancha tortishuvlarga sabab buldi. Ayrim olimlar to’rtlamchi davr ichida O’rta Osiyo tog’larining xamma qismida yaxlit muz qatlamlari koplab olgan desa, ba’zilari muzliklar tog’larnnng hamma qismini koplamasdan fakat vodiylar buylab qarakat qilgan deyishadi.

Akademik V. I. Popov yozishicha Pomir tog’larida bir xil muzlik bulmay, uning turli qismlarida muzliklarning xar xil turlari tarqalgan bo’lgan. Uning fikricha Pomir tog’larining tog’ oraliq rayonlariga uni o’rab olgan tog’lardan muzliklar harakat qilib tushib, bir - biri bilan tutashgan va unday joylarda yaxlit muz massivlari hosil bo’lgan. Bunday muz massivlari SHarkiy Pomirning hozirgi Korako’l, Zarko’l, Raigkul rayonlarida, Aurgob va Alichur daryo vodiylarida keng tarqalgan. Bu muzlik markazlariga uning atrofidagi tog’ tizmalaridan 200-250 *km* va kengligi 6-10 *km* li muzliklar qarakat qilib kelib bir-biri bilan tutashgan. Pomir tog’larining ba’zi rayonlarida daryo vodiylarida ularning boshlanish qismlarida muz massivlari bo’lib, O’rta va pastki okimlarida vodiy muzliklari tarakkin etgan. SHunday qilib V. I. Popov fikricha, xatto Pomir tog’larida ham uning hamma qismini koplab olgan muzliklar bulmagan.

60

Akademik I. P. Gerasimov va professor K. K. Markovlar ,ham O’rta Osiyo tog’laripi muzliklar butunlay bosmagan degan xulosaga kelishgan. Ularning yozishicha Pomir tog’larida, Oloy vodiysida tog’oldi muzliklari, ya’ni muzliklar tog’ tizmalaridan tushib pastki joylarda tog’oldi muzliklarini xosil qilgan.

Geologiya-mineralogiya fanlari doktori O. K. CHediya kup yillar

davomida Pomir tog’larida ish olib borib, to’rtlamchi davrning boshlanish vaqtida SHarkiy Pomir- da yarim tsoplamli, SHimoli-Garbiy Pomirda vodiy muzliklari taraqkiy etgan, degan xulosaga keldi. To’rtlamchi davrning O’rtalariga kelib SHarkiy Pomir tog’-larida xam vodiy muzliklari tarqalgan.

Akademik S. V. Kalesnik va S. V. Eginteynlar Markaziy Tyan’shan’ tog’larining qadimgi muzliklarini ur- ganib, shunday xulosaga kelishgai. Muz va korlar plato shakliga ega bo’lgan tog’ chutsqilarini va tog’ tizmalari oraligidagi pastliklarni doplab olgan, ularning O’rta-larida aloqida-aloxida chuqqilar kutarilib turgan. Ma’lum vatst utgandan sung muzliklar asta-sekin Jiskara boshlagan. Kqstsarish davomida yaxlit muz massivi bulinib ketgan, ularning kalinligi xam kamaygan. Plato shaklidagi chukqilartsagi muzliklar bilan TOG’ tiz-malari oraligidagi muzliklar bir-biridan ajralib kolgan.

Geolog olimlarning shunga uxshash fikrlarini juda kuplab keltirish mumkin. Ularning qar kaysisi xar xil fikrni olga suradi.

O’rta Osiyo tog’larida to’rtlamchi davr mobaynida bir rayonda qoplamli muzliklar, ikkinchi rayonda yarim k;oplamli, uchinchi rayonda vodiy muzliklari, ba’zi rayonlarda esa TOROLDI muzliklari tarqalgan bo’lgan. U yoki bu muzlikning tartsalishi muzliklar hosil bo’lgan- ga gqadar tog’lar rel’efinikg tuzilishiga boglits bo’lgan. Agar rel’ef daryolar bilan kesilmagan yaxlit massivlardan (platolardan) tashkil topgan bulsa, shaksiz un- day rayonlarda koplamli muzliklar vujudga kelgan. Ayrim rayonlarda qadimgi muzliklar daryolar bilan bir muncha kesilgan tog’[61]massivlarida xosil bo’lgan. Bunday rayonlarda yarim koplamli xamda vodiy muzliklari paydo bo’lgan.



**Daryo irmoqlarida „osilib“ turgan muzliklar**

Qadimgi muzliklariing qar xil turlari tarakdiy etishi muzliklar kaysi davrda xosil bulgavдщsiga. ,ham borlshushr. O’rta Osiyo tog’larining paleogeomorfologik sharoitiii analiz qilib kursak, ular to’rtlamchi davr- iing boshlaiishida bir muncha past va daryolar bilan kam kesilgan bo’lgan. Demak, usha davrlarda O’rta Osiyo tog’larining kup rayonlarida tsoplamli muzliklarning kelib chitsishi uchun tulik; sharoit bo’lgan. SHuning uchun usha davrda O’rta Osiyo tog’larining kup qismlarida koplama muzliklar tarqalgan bo’lgan. Tog’larnnng past-tekisliklarga yatsin qismlarida ular ancha daryolar bilan kesilgan bo’lgan, shuning uchun bunday rayonlarda yarim qoplamli va vodiy muzliklari tarqalgan bulishi mumkin, to’rtlamchi davrning O’rtalariga kelib esa qatto SHarkiy Pomirda, Markaziy Tyan’shan’ tog’larida daryolar bilan kesila boshlagan. SHuning uchun tog’larning kup rayonlarida qoplamli muzliklar satslanishi uchun imkoniyat tsolmagan. SHu sababga kura qadimgi muzliklar kup rayonlarda yarim tsoplamli va vodiy shaklini ola boshlagan. Birots, qoplamli muzliklar hamma joy- da ham tugab bitmagan. Rel’ef sharoiti tsulay bo’lgan rayonlarda ular hozir ham saqlanib kelmotsda.

**Muz oralkts davrlari.** Biz yuqorida O’rta Osiyo tog’larida bir nechta muzlik davrlari bo’lganligini kurib utgan edik. Xush, muz oraliq; davrlarida nimalar bo’lgan? Ayrim olimlar fakat O’rta Osiyo tog’larida emas, balki Yevrosiyoning boshtsa tog’li rayonlarida ham fakat bir muzlik davri bulib, qech kanday muz oralits davrlari bulmagan degan fikrdadirlar. To’rtlamchi davrning boshlarida paydo bo’lgan muzlik tog’larning eng baland qismlarida doimo satslangan, ba’zi davrlarda muzliklar fatsat uz maydonlarini bir oz kamaytirgan degan fikr bor. Bun- day fikrlar bilan kelishish mumkin emas, albatta.

O’rta Osiyo tog’larida olib borilgan tekshirish ishlari shuni kursatdiki, muz oraliq davrlarida itslim kes- kin uzgargan, ya’ni ob-qavo isib ketganligi va namgar- chilikning kamaygani natijasida muzliklar orkaga che- kinib, uz maydonlarini tez kamaytirganlar. Ayrim rayonlarda esa muzliklar butunlay erib ketib, muzlik davrida muzliklar bilan butunlay qoplangan rayonlar muzlikdan ozod bo’lgan. Muz oraliq; davri hozirgi biz yashab turgan davrdan ham issikrok bo’lgan degan fikr- lar bor.

SHuni kursatish kerakki, hozirga tsadar olimlar O’rtasida kanday omillar ta’sirida iqlim uzgargan degan baqs ketmokda. Albatta bu davrlarda iklimning uzga- rishiga tog’larning kutarilishi ta’sir tsilgan deb bul- maydi. CHunki bu davrlarda xam tog’lar baland bo’lgan, ular kutarilgan. Ma’lumki, tog’larning kutarilishi itslimni sovushga olib keladi, muz oralits davrlarida esa ob-qavo, aksincha, isigan. Demak, iklim uzgarishi- ning bonщa sabablari bor ekan, bu davrlarda butun Yer shari iklimining uzgarishi natijasida ob-qavo isigan bulishi mumkin. 63

Muz oraliq davrlarida tektonik kutarilishlar (tog’ paydo bulish protsesslari) juda kuchaygan. Buning natijasida daryolarning yuvish ishlari ortadi. O’rta Osiyo tog’larining kup rayonlarida olib borilgan ishlar shuni kursatdiki, muz oralits davrlarida muzliklar butunlay erib bitgan. Ba’zi tog’larning eng baland tsismlaridagina muzlik muz

oralits davrlarida saklan- gan bulishi mumkin.

SHunday qilib, muz oraliq davrlarida ob-qavoning oz isishi natijasida muzlar erib ketgan. Erigan muz tog’larda kuchli yuvish ishlarini bajargan, natijada chu- kur daryo vodiylari hosil bo’lgan, pasttekpslik va tog’- oldi rayonlari katta tsalinlikda tog’ jinslari bilan koplangan.

Pomir tog’larida olib borilgan tekshirish ishlari shuni kursatdiki, xatto shunday baland tog’larda ham to’rtlamchi davr ichida issik iklimda usadngap usimlik- lar koldigi topilgan. Bu fakt Pomir tog’larida ham muz oraliq davrlari bo’lganligini kursatadi. Muz oraliq davri bulmaganda va buning natijasida muzlar chekin- maganda, bunday issits itslimga moslashgap usimliklar usmagan bular edi, albatta.

Xozir biz muz oraliq davrida yashayapmiz. Buni tasdiqlovchi juda kup faktlar bor. Asrimnzning 20 yillaridan boshlab muzliklar makoni Arktika isiy boshladi. Mana shu yillardan boshlab hozirgi kunlarga kadar SHimoliy muz okeani muzliklarining maydoni qisqara boshladi. Bu okeanda paroxodlar katnash vakti uzaya bordi. SHu bilan birga avvallari ancha janubroqda yashaydigan qayvoplar, usadigan usimliklar shimolga siljiy boshladi. Iilning O’rtacha qarorati Arktika-iing garbiy qismlarida 3-4 gradus kutarildi. Bunday uzgarish tinimsiz bulmay, 9-13 yillik tsikl bilan bul- mo!\da. Щliminig issik tomonga uzgarishi Antarktida- da ham kuzatilmokda, bu rayonda ham muzliklar chekin- mokda.

Muzliklarning chekinishi tog’li rayonlarda ham ku- zatilmoqda. Al’p tog’larida va boища O’rta kengliklar- da joylashgan tog’li rayonlarning muzliklari tsiskar- mokda. Tog’li rayonlarda muzliklarning erishi qalo- katli xarakterga ega emas. Utgan asrning O’rtalaridan boshlab muzliklar tsistsarishi qar xil tezlikda doimo bulib kelmotsda. Bu soqada 1957 yilda Pomir tog’lari kindigidagi

Fedchenko nomli muzlikda, dengiz satqidan 5000 metr balandlikda Rus olimlari tomonidan tashkil qiliigan biriichi dreyf stantsiyasining kuzatishlari tsizitsarlidir. Stantsiya Fedchenko muzligining ustida urnatilgan edi, u muzlik bilan birga bir sutkada yarim metrgacha qarakat tsildi. Bu stantsiyada olimlar va al’- iinistlar ikki yil kuzatish olib borishdi va natija- da muzlikning pastki gqismi («tili») keyingi ellik yil ichida >qar yil i 10-20 metrga kisqarganligini kursat- di. Muzliklarning tsisqarib borishini Tyan’shan’ va Pomirning boshqa muzliklarida ham kuzatildi. Bu suz O’rta Osiyoda tsurgokchilik boshlanayapti degan suz emas, albatta. Butun dunyo masshtabida olib borilgan ishlar shuni kursatdiki, hamma muzliklar ham qiskarmayapti. Mamlakatimiz tog’laridagi muzliklarning 20 protsenti aksincha, uz maydonlarini kengaytirmokda, 10 protsenti esa uz xolatini keyingi yillarda qech uzgartir- may turibdi. Fedchenko muzligining yakinida joylashgan SHimoliy, Taiimas, Geografiya jamiyati, Ulugbek muzliklari shu yillar ichida uz maydonlarini kengay- tirgan. Demak, kelgusida muzliklar erib ketib, tsur- gotschilik bulishi mumkin emas. Muz oraliq davrlarida tog’larda .\amma muzliklar yuts bulib ketadi deyish no- tutri, albatta. Daryolarning suv bilap ta’minlanishi uchun daryolarning yukori qismlarida muzliklar buladi. Muz oraliq davri boshlangandan sung hozirgi zamon muzliklari maydonlarining kisqarishi va yana uz dolita kaytishi tarixda bir necha marta kuzatilgan.

65

## 2.4. O’rta Osiyo ularning hozirgi davr muzliklari va ularning o’ziga hos hususiyatlari

O’rta Osiyo tog’lari Yevrosiyoning eng baland va ulkan tog’laridan biri hisoblanadi. Bu tog’lar MDX hududlarida joylashgan boshqa tog’ tizmalariga nisbatan quruq iqlim sharoitida joylashgan bo’lishiga

qaramasdan, balandligi katta hamda g’arb va shimoldan kelayotgai namgarchiliklarni tutib qoluvchi bir nechta uzellar bo’lganligi sababli, ularda hozirgi zamon muzliklari keng tarqalgan.

O’rta Osiyoning Pomir va Tyan’shan’ tog’larida Yer sharining eng katta muzliklari joylashgan. Bu tog’larning muzliklari o’zining kattaligi va uzunligi jihatidan Yer sharining eng katta tog’lari hisoblangan Qoraqurum va Himolay tog’larining muzliklari bilan tenglasha oladi. O’rta Osiyo tog’larida turli xil muzliklar bor. Ular tog’larda-ko’pchilik daryo vodiylarini egallabgina qolmay, ba’zi rayonlarda kattagina territoriyalarni (hatto tog’ chuqqilarini) egallab yotibdi.

Glatsiolog olimlarning olib borgan tekshirishlari shuni ko’rsatdiki, hozirgi vaqtda O’rta Osiyo tog’larida 16,7 ming kvadrat qilometr maydonni muzliklar qoplab olgan. Hozirgi zamon muzliklarining makoni hisoblangan Arktikada muzliklariing maydoni 54 ming kvadrat qilometrga tengdir. Geolog va geomorfolog olimlarning ko’p yillardan beri olib borgan tekshirishlari shuni ko’rsatdiki. Yer sharining to’rtlamchi davr mobaynida (taxminan bir million yillar ichida) O’rta Osiyo tog’larida muzliklarning maydoni hozirgi muzliklar maydoniga nisbatan bir necha marta katta bo’lgan.

O’rta Osiyo tog’larida hozirgi davr muzliklarining ko’rinishi bir xil emas. Ularning bir nechta tiplari mavjud.Hozirgi muzliklar ichida eng keng tarqalganlari vodiy muzliklaridir. Vodiy muzliklari O’rta Osiyo tog’larining yog’ingarchilikka boy hamda chuqur daryo vodiylari bilan kesilgan chekka qismlarida tarqalgan. [66]

Pomir O’rta Osiyoning eng baland tog’laridan biri hisoblanadi. Bu tog’ o’zining tuzilishi jihatidan ikki qismga bo’linadi.

SHarqiy Pomir - yassi tog’ bo’lib, uning hamma tomonidan ko’p qismi doimiy muzliklar bilan qoplangan tog’ tizmalari o’rab olgan. Uning G’arbiy shimolida Fanlar Akademiyasi tizma tog’i, SHarqida

Sariko’l tizma tog’i, Janubida esa o’lkan Vaxon va Hindiqush tog’lari joylashgan. SHarqiy Pomir yassi tog’ hisoblanganiga qaramasdan ustki qismi tekis emas. Deyarli hamma qismida tog’ tizmalari chuqurliklar bilan almashinib turadi. Bu tizma tog’larning balandligi 5000-5500 metrga yetadi, ularning oralig’ida joylashgan chuqurliklarning balandligi esa 3850-4000 metrdan oshmaydi. Bu chuqurliklardan o’z o’zanini o’ymagan, yoyilib oquvchi daryolar oqib o’tadi, ba’zilarida esa katta-katta ko’llar bor. SHarqni Pomir yassi tog’i hamma tomondan baland tizma tog’lar bilan o’rab olinganligi uchun o’lka sharoiti juda quruq, yog’ingarchilik juda kam yog’adi. SHuning uchun hozirgi zamon muzliklari juda kam taraqqty etgan.

G’arbiy Pomirnnng tuzilishi SHarqiy Pomirdan butunlay farq qiladi. U chuqur, asosan, dara shakliga ega bo’lgan daryolar bilan kuchli kesilgan. Daryolarning chuqurligi 1500-1700 metrdan oshadi.

Daryo vodiylari orasida juda baland tog’lar - Rushan, Yazgulem, Vanch **va** boshqa tog’ tizmalari joylashgan. Ularning balandligi dengiz sathidan 5500- 6000 metrgacha ko’tarilgan.

Pomirning chekka tizma tog’larida O’rta Osiyoning baland chuqqilari joylashgan. Bulardan eng balandlari Ismoil Somoniy chuqqisi (7494 metr), bo’lib alohida ajralib turadi.

Glatsiologlarning ma’lumotiga ko’ra Pomir tog’larining O’rta Osiyo hudududa joylashgan Qismida hozirgi zamon muzliklarining umumiy maydoni mashhyp olim akademik S.V. Kalesnikning fikricha 10200 kvadrat qilometrdir. Pomir tog’lari bir qancha tizma tog’lardan iboratligini yuqorida qayd qilib o’tgan edik.[67] Endi shu tizma tog’larning hozirgi zamon muzliklari haqida ba’zi ma’lumotlar keltiramiz.

Ko’rsatilgan tog’ tizmalarida muzliklarning uzunligi 1,5 qilometrdan kattalarigina olindi. Aslida kichik muzliklariing soni behisobdir. Pomir tog’larida uzunligi 10 qilometrdan oshiq

muzliklarning soni 40 tadan ko’prok, uzunligi 20 qilometrdan ortik muzliklarning soni 11 taga yetadi.

Quyida Pomirdagi muzlik maydonining 70 kvadrat qilometrdan oshiqlarining nomlari keltirildi.

Pomir tog’larining eng katta muzligi Fedchenkodir. Uning uzunligi 71,2 *km,* maydoni 907 kv. *km* dir. Fedchenko muzligi uzunligi 20-25 *km* keladigan 127 ta irmoqlar va tarmoqlarni qabul qiladi. Muzlikning qalinligi uning o’rta qismida 700-1000 *m,* pastki qismida esa 300- 400 *m* ga kamayadi.

Tyan’ SHan’ tog’lari baland va turli tomonlarga cho’zilgan tizmalardaniborat. Tyan’shan’ sistemasiga kiruvchi kupchilik tizma tog’lar asosan g’arbdan sharq tomonga cho’zilib, birlashadi va uzellar hosil qiladi. SHunday tog’ tizmalarining tutashgan uzellarida katta-katta muzliklar hosil bo’lgan. Masalan, Zarafshon, Oloy va Turkiston tizma tog’lari Zarafshon daryosining boshlanish rayonida bir-biri bilan tutashib, Matchoh uzeli, Orqa Ili Olotovi va Kungey Olotovi tutashgan rayonda Talgar uzelini hosil qiladi. Tyan’shanning sobiq Ittifoqi territoriyasida joylashgan tog’ tizmalaridagi muzliklar Tyan’shan’ tog’larida anchagina uzun va maydoni katta muzliklar mavjuddir. Bulardan biri Zarafshon muzligi hisoblanadi. Uning uzunligi 26 qilometr, maydoni irmoqlari bilan birga hisoblaganda 113.9 kvadrat qilometr, qalinligi 200 metr, hajmi esa 8 kub qilometrga yaqin.

«G’alaba» cho’qqisi (7439 *m)* va Xontangri (6995 *m*) rayonlarida katta muzliklar bor. «G’alaba» cho’qqisining 50 68 qilometr radiusida 2818 kvadrat qilometr maydonni muzliklar va doimiy qorlar egallab yotibdi. SHu rayonda 109 vodiy muzligi bor. Bu rayonniig eng katta muzliklarining nomi, uzunligi va maydoni haqidagi ma’lumotni 2-jadvalda keltiramiz:

Bu muzliklardan (Temirsu, Tugbelchi, Qoragul, Quchorboshi, CHoi

Terei, Kichik Terensu, Saykay) Xitoy territoriyasida joylashgan. Umuman Tyan'shan' tog'larida hozirgi zamon muzliklarining maydoni 10175 kvadrat qilometrdir.



**O'rta Osiyo tog'larida yassi cho'qqi muzliklari anchagina maydonlarni egallab yotibdi.**

Yuqorida asosan vodiy muzliklari haqidagi ma'lumotlarni keltirdik. Bundan tashqari O'rta Osiyo tog'larida yassi cho'qqi muzliklari anchagina maydonlarni egallab yotadi. SHuni qayd qilish kerakki, muzliklarning bu turi hozirgi zamonda ancha kam taraqqiy etgan, buni keyingi sahifalarda ko'rib o'tamiz, to'rtlamchi davr mobaynida ular keng tarqalgan muz turlaridai biri bo'lgan yassi cho'qqilar muzligi hozirgi davrda Markaziy Tyan'shan' tog'larida dengiz sathidan o'rtacha 4000-4200 metr balandlikda uchratilib, ularning qalinligi 150 metrgacha yetadi. Muzliklarning bu turi hosil bo'lishi uchun u joy daryolar bilan kam kesilgan bo'lishi kerak. Markaziy Tyan'shan' tog'larida esa hozirgi davrda bunday sharoit mavjuddir. Bunday
69
sharoit SHarqiy Pomir tog'larida ham bor. Biroq, bu rayonda iqlim juda quruk. SHarqiy Pomir tog'larida Markaziy Tyan'shan' tog'lariga nisbatan 4 marta kam yog'ingarchilik yog'adi. SHuning uchun muzliklarning bu turi SHarqiy Pomirda taraqqiy etmagan.

## Xulosa

Er sharidagi hozirgi muzliklariing umumiy maydoni 16-18 *mln km* bo’lsa, to’rtlamchi davrda Yer yuzining ko’p qismini muzliklar qoplaganda ularning maydoni 45 *mln kv km* ga yetgan, bulardan 30 *mln kv km* SHimoliy Yarim sharda bo’lib, hozirgi davrda uning maydoni deyarli 15 martaga kamaygan.

O’rta Osiyoning tabiatini tekshirish bilan mashg’ul bo’lgan olim va sayohatchi N. A. Severtsov birinchi bo’lib O’rta Osiyo tog’larida qadimgi muzliklarning paydo bulish sabablari haqida o’z fikrini aytgan. Uning fikricha, qadimgi davrlarda iqlim hozirgiga nisbatan ancha namli bo’lgan, shuning uchun qish faslidagi harorat hozirgiga nisbatan past bo’lsa ham tog’larda juda ko’p qor yog’gan. O’sha davrda namgarchilikni asosan O’rta Osiyo tog’lari, uning shimoli va shimoli-g’arbida joylashgan Kaspiy, Orol, Balxash ko’llari va SHimoliy Muz okeanining birlashishidan hosil bo’lgan katta suv havzasidan olib turgan degan fikrni aytgan.

Taniqli geolog olim I. A. Preobrajenskiy O’rta Osiyo tog’larining balandligi, ya’ni ko’tarilganligiga qadimgi muzliklarning paydo bo’lishini asosiy sabab qilib ko’rsatadi.

O’rta Osiyo tog’larini kup yillar mobaynida tekshirgai olim professor Yu. A. Sevortsov qadimgi muzliklariiig paydo bo’lishi haqida quyidagilarni yozgan. To’rtlamchi davr mobaynida O’rta Osiyo tog’larining dengiz sathidan kuchli ko’tarilishi bu rayonning iqlim sharoitini o’zgarishga olib kelgan. Buning ta’sirida O’rta Osiyo tog’larining ayrim rayonlarida Yer sharining iqlimi o’zgarishga bog’lik bo’lmagan xolda muzliklariing kelib chikishi uchun sharoit yaratilgan.

Akademik I. P. Gerasimov va professor K.K.Markovlar tog’larning qadimgi muzliklar bo’yicha juda ko’p materiallarni analiz qilib, qadimgi muzliklariing

paydo bo’lishini tog’larda muzlik iqlim o’zgarishi natijasida hosil bo’lgan deb xulosaga kelishdi.

L. S. Berg qadimgi muzliklar hosil bo’lishining asosiy sababchisi qilib butun yer atmosferasi haporatining pasayishn deb ko’rsatadi. O’rta Osiyo hududida ko’p yillar davomida tekshirish ishlari olib borgan olim professor B. A. Fedorovich qadimgi muzliklar kelib chiqishining asosiy sababi qilib paliogen davrining oxirlarida boshlangan kuchli tog’ paydo bo’lish protsesslarini ko’rsatadi. Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turibdiki O’rta Osiyo hududida qadimgi mizliklarning paydo bo’lishiga bir qancha omillar ta’sir ko’rsatgan. O’rat Osiyodagi qadimgi muzliklarning paydo bo’lishida tog’ hosil bo’lish jarayoni ham, iqlim o’zgarishi ham, yerning quyoshga nisbatan xarakatining o’zgarishi ham, yer atmosferasi haporatining pasayishi ham katta ta’sir ko’rsatgan va bu o’z navbatida ma’lum davrda qaysidir omilning yetakchi o’ringa ko’tarilishi bilan bog’liq.

I. A. Suetovaning ko’p yillik olib borgan ishlari natijasida tog’larida tarqalgan qadimgi muzlik maydonlari hisoblab chiqildi. Uning hisobi bo’yicha O’rta Osiyo va Qozogiston tog’larida qadimgi muzliklar maydoni, ular juda keng tarqalgan davrida 176 ming kv km bo’lgan, hozirgi zamon muzliklarining maydoni esa yuqorida ko’rsatganimizdek 16,7 ming *kv km* dir.

SHunday qilib, SHarqiy Pomir tog’larida qadimgi muzliklar hozirgi muzliklarga nisbatan 10-15 marta katta bo’lgan. SHarqiy Pomirda hozirgi davrda iqlim sharoiti quruq bo’lganligi sababli hozirgi zamon muzliklari juda kam tarqalgan.

Qadimgi muzliklariing eng taraqqiy etgan markazlaridan biri Tojikiston territoriyasidagi Zarafshon va Hisor tog’larining orasida joylashgan Markaziy Kubistom bo’lgan. Bu rayondan Zarafshon daryosi boshlanadi. Bu daryoning yuqori oqimida va uning irmoqlarining vodiylarida aniqlangan qadimgi muzliklariing uzunligi 20-40 *km* bo’lib, ular daraxtsimon shaklga ega bo’lgan. Zarafshon daryosining o’zidagi qadimgi muzlikning uzunligi esa 104 *kmga* yetgan, ya’ni hozirgi Zarafshon muzligidan 78 *km* uzun bo’lgan.

G. Bondarevning hisoblashicha, Markaziy Tyan’shan’dagi Akshiyrak tog’ massividagi qadimgi muzliklarning maydoni 3150 *kv km* ga teng bo’lgan, bu rayonning hozirgi zamon muzliklarining umumiy maydoni esa 730 *kv km* dan oshmaydi. Yuqoridagi firkrlardan kelib chiqib quydagicha hulosa qilish mumkin. O’rta Osiyo hududida qadimda juda katta muzliklar shakillangan bo’lib ularning maydoni hozirgi kunda keskin qisqarib ketgan va bu jarayon xozir ham davom etmoqda. Bu esa o’z navbatida tabiatning bebaho nemati xisblangan suvdan tejab - tergap  foydalanishni taqazo etadi.



72

## Foydalannilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI bo'sag'asida; hafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlar. –T., "O'zbekiston", 1997.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi (22.09.2010 yil).
3. Asosiy vazifamiz– Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 30 yanvar'.
4. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish– ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 28 yanvar'.
5. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi. – Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2010 yil 13 noyabr'.
6. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlarga bag'ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so`zi, 22 yanvar'. 73
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharo-itida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. T., O`zbekiston, 2009 yil, -56 b.
8. Abdulkosimov A.A. Problemi izucheniya mejgorno-kotlovinnix landshaftov Sredney Azii. Tashkent.: Izd-vo Fan 1983. -125 s.

9. Boymirzaev K.M. Farg'ona vodiysi tabiatidan foydalanish va muhofaza qilishni tashkil etish masalalari.// Farg'ona vodiysi tabiatini muhofaza qilishning ekologik-geografik asoslari. Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari. Namangan. 2003 yil. 8-14 bet.
10. Baratov P. O'rta Osiyo daryolari va ularning xo'jalikdagi ahamiyati. T. 1967.
11. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. «O'qituvchi» nashri. T. 1991.
12. Baratov P. Sultanov Yu. Tabiiy geografiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari. T. 1984.
13. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. T. 1996.
14. Baratov P., M.Mamatqulov, A.Rafiqov. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. T.2002.
15. Vahobov H., Azimov SH., Rafiqov A. Amaliy geografiya. Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari uchun darslik. T.; SHarq. 2009.
16. Maksudov A. Izmenenie pochvenno-ekologicheskix usloviy Ferganskoy dolini pod antropogennim vozdeystviem. Tashkent. Fan. 1990.- 92 s.
17. Mil'kov F.N. CHelovek i landshafti (ocherk antropogennogo landshaftovedeniya) M.: Misl'. 1996. -224 s.
18. Vronskiy V.A.Ekologiya. Slovar`-spravochnik. Rostov na Donu, 2002.
19. Protasov V.F. Ekologiya zdorov`e i oxrana okrujayushey sredi Rossii. M.2001.
20. Ixling A. Ekologiya landshafta: opredelenie i razvitie. V tez. konf. «StRruktura, funktsionirovanie, evolyutsiya prirodnix i antropogennix landshaftov». Moskva-Sank-Peterburg, 1997.
21. O`zbekiston Respublikasining er resurslari atlasi. Toshkent, 2001
22. SHodimetov YU.SH. Regional'nie problemi sotsialnoy ekologii. Tashkent, 1992.
23. Zokirov SH.S. Landshaftshunoslik asoslari. Toshkent, ToshDU, 1995.
24. Rafikov A.A. Orol taqdiri. Toshkent, Fan, 1990.
25. O`zbekistonning ekologik xaritasi. Toshkent. 1992.

26. O`zbekistonning tabiiy xaritasi. Toshkent.1996.
27. O`zbekiston Respublikasi Toshkent, Qomus, 1996.
28. G'ulomov P. N. Geografiya va tabiatdan foydalanish. Toshkent, O`qituvchi, 1985.
29. G'ulomov P.N. O`zbekistonda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari. Toshkent. 1990.
30. Haydarov Q.X. , Hojimatov Q.X. O`zbekiston o`simliklari. Toshkent, O`qtituvchi, 1992.
31. Hasanov I.A. O`zbekiston tabiiy geografiyasi (ma`ruzalar matni). Toshkent, «Universitet», 2000.
32. Hasanov I.A. , G'ulomov P.N. O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent, UzMU, 2002.
33. Hikmatov F.H., Aytbaev D.P. Ko`lshunoslik. Toshkent, «Universitet», 2002.
34. Hikmatov F.H., Aytbaev D.P. "Umumiy gidrologiya" Toshkent, «Universitet», 2007.
35. Egamberdiev R., eshchanov R. Ekologiya asoslari.-T.: Zar qalam. 2004.
36. ErgashevA. Umumiy ekologiya. –T.; O`zbekiston, 2003.
37. G'ulomov P.N., Mirakmalov M.T., Xudoyberdieva M.A. O`zbekistonda geografiya ta`lmining bosqichlari // Geografiya ta`limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo`qon. 2008. 127-129 b.

**Интернет сайтлар**

1. (http://management.edu.ru/db/msg/128017.html). [75]
2. (http://orel3.rsl.ru/dissert/isaeva).
3. (http://www.iet.ru/afe/publications.html).
4. http://rbip.bookchamber.ru/description7897.htm
5. http://family.taukita.ru/item22219310.html
6. http://shopper.h1.ru/books.shtml.topic=935&page=